

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 87 (1148), 2024-yil 7-may, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

ENDI DAVLAT GRANTI O‘RINLARI
ENG YUQORI BALL TO‘PLAGAN ABITURIYENTLAR
TANLOVI ASOSIDA BELGILANADI

Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyev huzurida oliy ta’lim tizimi bo‘yicha bo‘lgan taqdimotda aytib o‘tiladi.

Ta’lim doim rivojlanib, yangilanib boradigan jarayon. Bu yo‘nalishdagi islohotlarni jadallashtirish maqsadida, davlatimiz rahbarining shu yil 2-fevraldagi qaroriga asosan, “Ta’lim sohasida loyihalar markazi” loyiha ofisi tuzilgan edi. O‘tgan vaqt mobaynida ushbu ofis tomonidan vazirliklar bilan birga o‘quv jarayonlarini yangi tamoyillar asosida tashkil etish, kadrlar salohiyatini oshirish, ta’lim xizmatlari sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko‘tarish bo‘yicha chora-tadbirlar va istiqbolli tashabbuslar ishlab chiqildi.

6-may kuni Prezident huzurida oliy ta’lim yo‘nalishlarini optimallashtirish, qabul va malaka tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar muhokama qilindi. Bugungi kunda bakalavriatda 306 ta yo‘nalish, magistraturada 625 ta mutaxassislik bor. Lekin ularning ayrimlari xalqaro standartlar va zamonaviy mehnat bozori talablariga mos emas. Bu bitiruvchilarda to‘liq malaka shakllanishi va ularning ishga joylashishida muayyan qiyinchiliklar tug‘dirmoqda.

Shu bois, ta’limning xalqaro tasnifi, ilg‘or xorijiy tajriba asosida bakalavriat va magistratura yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish hamda ayni paytda talab yuqori bo‘lgan sohalarida yangi yo‘nalishlar ochish bo‘yicha takliflar bildirildi.

Oliy o‘quv yurtlarida ta’lim jarayonlarini raqamlashtirgan holda dekanatlar va boshqa ma’muriy tuzilmalarni optimallashtirish masalasi ham muhokama etildi.

Shu nuqtaiy nazardan, 1-sentabr qadar o‘quv jarayonlarini to‘liq qayta ko‘rib chiqib, yangi tizimni joriy etish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Keyingi asosiy masala bu — oliy ta’limga qabul tizimini yanada adolatli qilish va davlat grantlarini iqtidorga yo‘naltirish. Hozirgi qabul tizimi, kvotalarning taqsimlanishi raqobatni to‘liq ta’minlamayapti. Ayrim abituriyentlar yuqori ball to‘plasa-da, topshirgan oliy-gohining kvotasi soniga qarab, o‘qishga kirolmay qolishi mumkin.

Yangi tartibga ko‘ra, muayyan bir ta’lim yo‘nalishiga ajratilgan davlat granti doirasida yuqori ball to‘plagan abituriyent, tanlangan oliy ta’lim muassasasidan qat’i nazar, davlat grantiga tavsiya etiladi. Ya’ni yuqori ball olgan yoshlar o‘qishga kirmay qolmaydi.

Yana bir yangilik: endi davlat granti 4 yilga bitta talabaga emas, balki har yili yuqori baholarga erishgan talabalar orasida qayta taqsimlanadi.

Davlatimiz rahbari bu tizimni adolati yo‘lga qo‘yish, yoshlarga va ota-onalarga yetkazish zarurligini ta’kidladi.

Malaka talablari bo‘yicha ham dolzarb masalalar ko‘p. Yurtimizdagi ayrim mezonlar xalqaro standartlarga va ish beruvchi talablariga to‘liq mos kelmaydi. Mehnat bozorida mavjud 8 mingdan yuqori ishchi kasbdan 5 mingdan ortig‘i bo‘yicha malaka standartlari ishlab chiqilmagan. Borlari ham aniq va sifatli emas.

Shuningdek, malakani baholash markazlarida sertifikatlash yo‘lga qo‘yilmagan. Milliy malaka tizimiga doir jarayon va hujjatlar Elektron platformada yuritilmaydi.

Shu bois Milliy malaka tizimini rivojlantirish institutini tashkil qilib, ish beruvchilar bilan birga malaka talablarini to‘liq ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

— Bu aholi bandligiga bevosita daxldor dolzarb masala. Shuning uchun bu borada qonunlar ishlab chiqib, vazirlik va idoralar mas’uliyatini belgilash, ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Taqdimotda muhandislik sohasidagi ta’lim sifati ham tahlil qilindi.

Mamlakatimizda yiliga 3 mingdan ziyod sanoat korxonalarini tashkil etilib, 146 ming ish o‘rni yaratilyapti. Ularda yiliga 25 mingdan ziyod muhandis va texnologlarga ehtiyoj bor.

Bu yo‘nalishda 33 ta davlat oliy-gohida kadrlar tayyorlanadi, ta’lim sifati talab darajasida emas. Ilg‘or xorijiy universitetlarda allaqachon to‘xtatilgan ayrim fan va mutaxassisliklari hali ham o‘qitilmoqda. O‘quv reja va dasturlarining qariyb yarmi mehnat bozori va xalqaro standartlarga javob bermaydi.

Mutasaddilarga ushbu ta’lim yo‘nalishida keskin o‘zgarish yashash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

O‘ZA

TEMIR YO‘L
SOHASIDAGI LOYIHALAR
KO‘RIB CHIQLDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 6-may kuni temir yo‘l sohasidagi loyihalar taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizning geografik joylashuvi, rivojlangan sanoati va iqtisodiyotida temir yo‘l transporti muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda O‘zbekiston temir yo‘llari katta rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. Zamonaviy infratuzilmaga ega, aholi va iqtisodiyot tarmoqlarining ehtiyojlariga mos yaxlit temir yo‘l tizimi barpo etildi.

Umuman, mustaqillik davrida 2 ming 400 kilometr dan ko‘proq yangi temir yo‘llar qurilib, foydalanishga topshirildi, 3 ming kilometr dan ziyodi elektrlashtirildi. Yurtimiz temir yo‘l sohasi o‘zining og‘ir mashinasozlik va quyuv-metallurgiya sanoatiga ham ega bo‘ldi. Bugun bu tarmoq o‘lkamizning barcha hudud hamda mintaqalarini ishonchli va samarali bog‘lab kelmoqda.

Bular orqali O‘zbekiston zamonaviy transport kommunikatsiyalari va yuksak tranzit salohiyatiga ega bo‘lgan davlat sifatida Sharq va G‘arb, Janub va Shimolni o‘zaro bog‘laydigan xalqaro temir yo‘llarning muhim halqasiga aylandi. Davlatimizning faol investitsiya siyosati, biznes uchun jozibador sharoitlari uning savdo yo‘llari kesishadigan chorraba sifatidagi ahamiyatini yanada oshirdi.

Shu bois, bu sohadagi qurilish va modernizatsiya ishlarini izchil

davom ettirish muhim. Taqdimotda bu boradagi loyihalar muhokama qilindi.

Avvalo, transport-logistika salohiyatini yanada kengaytirish va undan samarali foydalanish masalalariga e’tibor qaratildi. Tadbirkorlarga qulayliklarni va eksport imkoniyatlarini oshirish uchun transport yo‘laklarini izchil diversifikatsiya qilish zarurligi ta’kidlandi.

“Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida transmittaqaqiy aloqalarning muhim tarkibiy qismi bo‘ladigan “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish bo‘yicha amaliy ishlar ko‘rib chiqildi. Ekspertlarning fikricha, bu transport yo‘lagi nafaqat uchta davlat, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyotiga kuchli sur’at bag‘ishlaydi.

Markaziy Osiyoni Janubiy Osiyo bilan bog‘laydigan yangi transport yo‘laklarini yaratishga doir jarayonlar bo‘yicha axborot berildi.

Davlatimiz rahbari shu bilan birga aviatsiya infratuzilmasini rivojlantirib, aeroportlarni xalqaro tranzit xabiga aylantirish, zamonaviy avtomobil yo‘llari qurish va ta’mirlash bo‘yicha topshiriqlar berdi.

O‘ZA

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining
F A R M O N IIKKINCHI JAHON URUSHI
QATNASHCHILARINI
RAG‘BATLANTIRISH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimizda 9-may — Xotira va qadrlash kuni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlanishi, shuningdek, Ikkinchi jahon urushida halok bo‘lgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, bugun ham safimizda turib, Vatanimizning obro‘-e’tiborini yuksaltirishga, yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga hissa qo‘shayotgan faxriylarni e’zozlash hamda fashizm ustidan qozonilgan g‘alabani 79 yilligi munosabati bilan urush qatnashchilari va nogironlarini moddiy rag‘batlantirish maqsadida:

1. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 20 000 000 (yigirma million) so‘m miqdorida bir martalik pul mukofoti belgilansin.

2. Mazkur Farmonni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan sarf-xarajalar O‘zbekiston Respublikasining

respublika budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirilsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Mudofaa vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston mahallalari uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi bilan birgalikda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlariga ushbu pul mukofoti tantanali hamda bayramona vaziyatda topshirilishini ta’minlansin.

4. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

SH. MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2024-yil 16-aprel

Prezident farmoniga sharh

GIYOHVANDLIK VA NARKOJINOYATLARGA
QARSHI KURASHISH BO‘YICHA
2024-2028-YILLARGA MO‘LJALLANGAN
MILLIY STRATEGIYA TASDIQLANDI

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning nazoratini amalga oshirish orqali ularning aholi salomatligi va genofondga salbiy ta’sirini bartaraf etishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni imzolandi.

Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoiyatlarga qarshi kurashish bo‘yicha 2024-2028-yillarga mo‘ljallangan milliy strategiya tasdiqlandi.

Quyidagilar Strategiyaning ustuvor maqsadlari sifatida belgilanmoqda:

— aholi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarda “giyohvandlikka qarshi immunitet”ni, o‘quvchi va talabalar orasida psixotrop moddalarni iste’mol qilishga muvofiqsiz munosabatni shakllantirish (ta’lim muassasalarida yangi ta’sirchan tab’ig‘or-tashviqot va tarbiyaviy-profilaktik mexanizmlarni joriy etish);

— aholiga sifatli narkologik yordam ko‘rsatish tizimini rivojlantirish, giyohvandlikning barvaqt profilaktikasi, diagnostikasi, davolash va tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiyasi tizimini tubdan takomillashtirish;

— giyohvandlik vositalari noqonuniy aylanmasining yangicha, ayniqsa, internetdagi usullariga barham berish, bu boradagi tezkor-qidiruv, tergov va ekspert-kriminalistik choralar kompleksini rivojlantirish (birinchi navbatda raqamlashtirish orqali);

— tibbiyot muassasalari va dori-xonalarning giyohvandlik vositalaridan foydalanish amaliyotini nazorat qilish, farmatsevtika korxonalarini, giyohvandlik vositalarining ulgurji va chakana savdosi bilan shug‘ullanuvchi subyektlar mas’uliyatini oshirishning ta’sirchan mexanizmlarini yaratish;

— giyohvandlikni davolash va narkojinoiyatlarga qarshi kurashish sohasida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish (ilmiy izlanishlar, xulosalar, yutuqlar va yangiliklarni amaliyotga

joriy etish hamda ommaga yetkazish).

Shu bilan birga, Bosh vazir raislik qiladigan Giyohvandlik vositalari ustidan nazorat qilish bo‘yicha Davlat komissiyasi tuzilib, uning zimmasiga quyidagi vazifalar yuklandi:

— Strategiyaning to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish, uni amalga oshirish bo‘yicha yillik milliy dasturlarni tasdiqlash va ijrosini nazorat qilish, davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;

— har uch oyda Strategiya va yillik davlat dasturi ijrosining tanqidiy o‘rganilishini, maqsadlarga erishishga to‘sqinlik qilayotgan omillarni aniqlash va oldini olishga qaratilgan aniq choralar ko‘rilishini ta’minlash;

— giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashishni muvofiqlashtirish, aholi orasida giyohvandlikning barvaqt profilaktikasi bo‘yicha samarali chora-tadbirlarni belgilash.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzurida Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi tashkil etilmoqda.

Milliy markazning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilanmoqda:

— narkovaziyatni hududlar kesimida ilmiy-amaliy va axborot-tahliliy jihatidan tizimli ravishda chuqur o‘rganib borish, asosiy omillar hamda tendensiyalarni aniqlash va prognoz qilish;

— giyohvandlik vositalarini nazorat qilish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini shakllantirish, qonunchilik va huquqni qo‘llash amaliyotini takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

— mutasaddi davlat organlari tomonidan ko‘riyotgan choralarining samaradorligini ekspert jihatidan baholash, bu borada yagona axborot almashinuvi va idoralararo hamkorlikni tashkil etish, xalqaro grantlarni jalb qilish orqali ularni zamonaviy texnik uskunalar bilan ta’minlash;

— xorijiy davlat tuzilmalari va xalqaro tashkilotlar bilan manzilli hamkorlikni o‘rnatish, O‘zbekiston tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan BMTga yillik ma’ruzalar tayyorlash;

— ilg‘or milliy va xorijiy tajribalarni doimiy o‘rganish hamda uning natijalarini joriy etish va ommalashtirish bo‘yicha metodika, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, mas’ul davlat organlari xodimlarining malakasini oshirish bo‘yicha o‘quv seminarlarini tashkil etish.

Milliy markaz Davlat komissiyasining muvofiqlashtiruvchi organi hisoblanib, uning faoliyatini axborot-tahlil jihatidan ta’minlab boradi hamda Prezident Administratsiyasi oldida hisobdor bo‘ladi.

Qabul qilingan farmonning ijrosi respublikamizda giyohvandlik vositalari noqonuniy aylanmasining barvaqt oldini olish, aholida ularni iste’mol qilishga nisbatan “immunitet”ni shakllantirish orqali genofondimizga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni bartaraf etish, giyohvandlikka chalingan bemorlarni tibbiy davolashning zamonaviy tizimini tashkil etish sohasidagi istiqbolli chora-tadbirlarni belgilash va qat’iy ijrosini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘ZA

Prezident qarorlari — hayotda va nazoratda

MA’NAVIYAT SEKTORI — YANGI HARAKAT, YANGI KUCH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida sohaga qaratilgan g‘oyat muhim masalalar muhokama qilindi, zarur yechimlar ko‘rsatildi. Aniq maqsad belgilab berildi: ma’naviyat boshqa sohalaridan o‘n qadam oldinda yurishi, ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak.

Bugun zamon sur’ati tez, o‘zgarishlar ko‘lami keng, chegara bilmas axborotlar ko‘p. Bular rivojlanishga zamin bo‘lmoqda. Shu bilan birga, har bir davlat, millat oldiga katta mas’uliyat, jiddiy tashviq, o‘ylantiradigan savollar qo‘ymoqda. Dunyo barchamizning ko‘z o‘ngimizda “g‘oyalar jangi”ga aylanib boryapti. Davlatimiz rahbari aytganidek: “Agar biz bu yorug‘ dunyoda “o‘zbek”, “o‘zbekistonlik”, “O‘zbekiston” degan nomlar bilan yashab qolishni istaydigan bo‘lsak, bu savollarga bugun javob topishimiz va ularni hal etish bo‘yicha amaliy harakatlarni aynan bugun boshlashimiz shart. Ertaga kech bo‘ladi”.

Bu yo‘lda harakatlarimizni natijaga, natijalarimizni davomiylikka aylantirish davr talabi. To‘xtash — ortga, harakatsizlik — mag‘lubiyatga, sukunatimiz — g‘oyalar hujumiga olib keladi.

Bu borada yig‘ilishda Prezidentimiz 9 ta yo‘nalishda o‘z fikrlarini bildirib, muhim tashabbuslarni ilgari surdi. Shulardan biri hududlardagi

4 ta sektorga qo‘shimcha ravishda ma’naviyat sektorini tashkil etishdir. Bu bilan madaniy-ma’rifiy sohada ishlarida hokimlarning mas’uliyati oshadi, tuman va shaharlarda ma’naviyat va ma’rifat maskanlari ishga tushiriladi, sektor ma’naviyat va ma’rifat kengashlarining ishchi tuzilmasiga aylanadi.

Ma’naviyat sektorini tashkil etish tashabbusi Prezidentimizning o‘tgan yil 16-17-noyabr kunlari Surxondaryoga tashrif chog‘ida ziyovlari tomonidan bildirilgan edi.



Yangi O‘zbekistonda inson qadri ulug‘lash, xalq manfaatini o‘ylash, elni boy, mulkdor qilish, huquqini mustahkamlash 4 ta sektor misolida tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, 5-sektor shu yo‘ldagi mayoqdir. Bu xalqimizning azaliy qadriyatlarini, ma’rifatparvar bobolarimiz orzusi, taraqqiyparvar jaddilar yo‘li, tarbiya, vatanni sevish, sadoqat va fidoyilikdir.

Qaror ijro bilan kuchli

Nizomulmulkning “Siyosatnoma”si, mana, necha asrki, qayta-qayta nashr etilib, o‘qib kelinmoqda. Mazkur asarda “Agar biror kishining farmonga salbiy munosabati ma’lum bo‘lsa yo uning ijrosi cho‘zilib ketgani to‘g‘risida xabar yetsa, unday kishiga, agar u yaqinlardan bo‘lsa ham, jazo beriladi”, deb haqli qayd etilgan. Zero, qonun ijrosi bilan kuchlidir.

Davlatimiz rahbari raisligida bo‘lib o‘tgan 2023-yil 22-dekabr kuni kengaytirilgan yig‘ilishda jami 107 ta topshiriq belgilab berilgan edi. Shu kunga qadar ulardan 36 tasining ijrosi ta’minlandi, qolganlarining ijrosini yil davomida bajarish belgilandi. Bugun mazkur topshiriqlar sifatli va o‘z vaqtida bajarilishini nazorat qilish ma’naviy-ma’rifiy sohada yangi tashabbuslarni

amaliyotga joriy etish, hayotiyatini ta’minlashda qo‘l keladi.

Mazkur topshiriqlar ijrosi hududlarda, vazirlik hamda tashkilotlarda qanday ta’minlanmoqda? Bu borada Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan ishchi guruh tuzilib, hududlar bo‘ylab tahliliy-tanqidiy o‘rganishlar olib borilmoqda.

Bunda har bir hududning o‘ziga xos qadriyatlarini va ma’naviy mezonlarini hisobga olgan holda ijtimoiy-ma’naviy muhit xaritasini ishlab chiqish maqsadida sohada mavjud muammo va kamchiliklarni tizimli o‘rganish, aholi orasida birdamlik va daxldorlik tuyg‘ularini qaror topirishga qaratilgan amaliy ishlarini yangi bosqichga olib chiqish yuzasidan alohida reja-jadval asosida o‘rganishlar boshlandi.

Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha hududiy ma’naviyat va ma’rifat kengashlarida tanqidiy-tahliliy muhokamalar tashkil etildi hamda markaz tomonidan uslubiy-amaliy yordam ko‘rsatilib, kelgusidagi chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqildi.

Davomi 3-beta

TASHKENT INTERNATIONAL INVESTMENT FORUM

NATIJA

kutilganidan YUQORI

III Toshkent xalqaro INVESTITSIYA FORUMIDA
26,6 MILLIARD dollarlik KELISHUV IMZOLANDI

4



Xotira muqaddas — inson qadri aziz



URUSH QATNASHCHISI
YUZ BILAN YUZLASHMOQDA

Rahmonberdi bobo bahor havosidan to'yib nafas oldi. Bir asrni qaritayotgan nuroniy xush yoquvchi oftobda toblanadi. Hovlida o'ynab yurgan chevaralari va Farangiz ismi qo'shni qizaloqning "Arg'amchi, arg'amchi" degan qiyqirig'ini eshitadi.

— Katta bobo, turalar kelyapti! Farangizning katta bobosini Xurram Pardayev deydirdi. Rahmonberdi bobo bilan tengdosh. Bir kunda urushga jo'nashgan, jangga kirishgan, Germaniya ostonasiga qadar dushmani chekintirib borishgan. Xurram urush tugur pallasida halok bo'lib, Berlinda dafn etildi. Undan bir farzand qoldi, ulg'ayib, ko'payib, undan esa bir etak bola. Jangohda jang kechgan bobosi haqida uni ko'rmagan, ammo eshitgan Farangiz singari yosh avlod vakillari tez-tez kelib, Rahmonberdi bobodan ikkinchi jahon urushi xotiralarini tinglaydi.

yoshlar hamda bolalar qolgan. Erkaklar yo'q joyda ayollar erkakka aylanadi.

Mirzarahimov Belarus tuprog'ini fashistlardan tozalash uchun ilk bor jangga kirdi. Ikki kunlik taloto'pda yaralanib, harbiy hospitalga tushdi. O'zi bilan borgan yuzlab vatandoshlari qonli jangohda bir

Qishloq xo'jaligining barcha og'ir yumushlari ayollar gardaniga tushgan. Ayolning qirqta joni bor, degan ibora



Bobo qo'li bilan quyoshni to'sib, ko'kka tikiladi, quloq tutadi. Qani endi, turalarni ko'ra olsa, ovozini eshitsa!..

Bobo, ana turalar arg'amchi bo'lib uchuyapti. Qarang, qarang!

Yuz bilan yuzlashish arafasida turgan nuroniy ko'kdan qidirib, turalarni topa olmaydi, ularning "qur-qur"ini ham eshitmaydi. Ammo g'ira-shira ko'rinib turgan tog'lar tomon yuzlanadi.

Bobo, ko'rdingizmi, ular qayoqqa uchib ketaypti, — so'raydi jajji chevarasi Azizjon.

Ular Surxontog' tomonga uchuyapti. Biz ham urushga shu tomon qarab ketgandik. Quyug' safimiz bor edi, siraq qaytgandik, — deydi tetiklik bilan chol olis qorli cho'qqilarga tikilib. — Avval ikkita akam ketdi. Biridan xat kelib turardi, boshqasi bedarak yo'qoldi. 18 yoshimda urushga ketdim.

Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi, "Jasorat" medali sohibi sho'rchilik Rahmonberdi Mirzarahimov bahorni har yili shunday dadillik va dilg'irlik bilan kutib oladi. Biroq o'tgan asrning, umming og'ir suronli yillarida yetgan jisman va ruhan jarohatlari uning tanini, ruhini hamon zabt etishga shoshiladi. Otaxon taslim bo'lmaydi. Taslim bo'lganida, taqdirga 18 yoshidayoq taslim bo'lib qo'ya qolardi. Taqdirini insonning o'zi yaratadi, degan gaplarga ishonadi bobo.

1943-yil bahorida adirlar qurshovidagi do'ppiidekkina Oqtumshuq qishlog'i erkaklariga yana urushga chaqiruv keldi. Aksar er yigitlar allaqachon ketib bo'lgan, biridan qoraxat kelgan, boshqasi nogiron bo'lib qaytgan, allakimdan esa xat-xabar yo'q edi. Qishloqda keksalar, ayollar va qisman

o'shanda paydo bo'lgan bo'lsa, ne ajab. Chaqiruv xatidan yosh Rahmonberdining yaqinlari dovdirab qoldi. Endigina o'n yettidan o'n sakkizga qadam qo'ygan yigit to'rvaxaltasini yelkasiga ilib urushga jo'nadi. Hamma davrlarda bo'lgani kabi o'sha zamonlarda ham g'irromliklar bo'y ko'rsatgan. Amaldorlar qarindoshiga kelgan chaqiruv qog'ozini turfa yo'llar bilan boshqaga o'zgartirishga erishgan, allakim urushga olib ketilishi, jangoh dahshatidan qochib, qo'rquvdan o'zini nogiron qilib qo'ygan, boshqasi nom-nishonsiz g'oyib bo'lgan, "dezertir" degan nom olgandi. Yosh Rahmonberdining qalbida esa fashistlarga nisbatan isyon uchquni bor ediki, janglarda yo'qolgan bir akasi va jang kechayotgan ikkinchi akasi ori uchun kurashga shoshdi. U qalbidagi dushmanga bo'lgan nafrat uchqunini olovga aylantirdi.

1943-yilda dastlabki tayyorgarlikdan so'ng 340-o'qchi polk tarkibiga borib qo'shilgan oddiy askar Rahmonberdi

kunda bargdek uzildi. Shu jang va undan olgan sabog'i janglarda, janggohlarda tobladi.

Bir oydan so'ng tuzalib, yana urushga kirdi. Belarus, Polsha, Latviya va Litva hududlari, Dnepr bo'yli uchun ayovsiz janglarda qatnashdi. 1944-yilning 7-iyunida Minskni ozod qilish uchun boshlangan, bir oydan ortiq davom etgan qonli janglarda qon kechdi. Nemislar yurtiga kirganlaridan so'ng Berlin sari 185 kilometr masofa zabt etilganida, Rahmonberdi qattiq yaralanib, front ortiga qaytarildi, davolandi va yana urushga bordi. 1945-yil 1-may kuni Berlin shahriga kirib borilarkan, eng yaqin ikki quroldosh do'stining xursandligi cheksiz, janglar tugab, yurtga qaytish ishtiyoqi bilan yonishardi. Ammo 9-may kuniga qadar ular bu yorug' dunyoni tark etib bo'lgandi.

Rahmonberdi boboning hayotdan olgan xulosasi shuki, toki yerdan rizq-nasibang uzilmas ekan, yashaysan!

Urush tugab, u O'zbekistonga qaytdi. Nafaqat qonli janggohlari, balki front orti ham jang maydoni edi. Urushning og'ir oqibatlari butun mamlakatni, xususan, do'ppiidekkina, sanoqli xonadon yashovchi hozirgi Oqtumshuq, avvalgi Dalvarzintepa qishlog'idagi hayotni izdan chiqargan edi. Odamlar yashab qolish ilinjida og'ir kun ko'rardi. Qishloqdan urushga ketgan 63 kishidan 22 nafarigina qaytgandi, qaytganda ham qalbi va jismi qattiq yara edi. Qishloq ahlil qashshoqlik tufayli turli joylardan rizq izlab tarqab ketdi.

Bir asrni qaritgan, urush dahshatlarini ko'rgan Rahmonberdi bobo bugun ba'zida ko'ngli bir oz ranjiydi.

— Oqibat, oriyat kamyoqligidan ko'nglim xijil, — deydi otaxon yana xotiralarga berilib. — Bu kunlar bir jannat. Biz ko'rgan kunlarni boshqalar ko'rmasin. Uning qadrini bilish, anglash kerak. Noshukrlik esa odamzodni jaholatga tortadi.

U urushda bo'lib, dunyodagi jaholatni birgina ma'rifat nuri bilan yengish mumkinligini anglab yetganini aytadi. Urushdan qaytib, traktorchilar tayyorlash maktabi, texnikum, kadrlar tayyorlash maktablarida o'qidi.

Sho'rchi qishloq xo'jaligi rivojiga hissa qo'shdi. Kengliklarda gektarlab bog'u rog' barpo etilishiga bosh-qosh bo'ldi. Farzandlarini voyaga yetkazib, oliy ma'lumotli qildi. Bugun 100 dan ortiq nabira va chevaraning sevimli bobosi. "Jasorat" medali va bir qancha nishonlarga sazovor bo'ldi. Bobo yuz ostonasida ham kuchli xotiraga ega. Gap-so'zida adashmaydi.

Bilagim endi kuchga to'layotgan paytda taqdir meni ko'p sinovlarga duch qildi, — deydi Rahmonberdi Mirzarahimov. — O'n sakkiz yoshimda urushga olib ketishdi. Jang maydonlarida ko'plab yaqinlarimdan, do'stlarimdan ayirildim. Eh-he, o'sha mudhish yillarda men kabi minglab yoshi yigitlar front azobini ko'rdi. Hali ham urushni eslasam, ko'z oldimda dahshatli jang maydonlari gavdalanaveradi.

Urush va mehnat faxriysining aytishicha, yaxshi zamon, tinch Vatan, to'kin dasturxon insonni yashartiradi. Yaxshi kunlarning qadriga yetib, Vatan ravnaqi yo'lida mehnat qilish, ezgu ishlarni amalga oshirish esa saodat.

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Agrar tarmoq

Tejamkorlik kundalik vazifamizga aylanmog'i lozim

— 1 milliard 125 million so'm kredit evaziga tomchilatib sug'orish texnologiyalari xarid qildik, — deydi Taxiatox tumanidagi "Bog'i Nazar Xo'jayli" fermer xo'jaligi rahbari Muhammadjon Ortiqov. — Tomchilatib sug'orilganda suv o'simlikning ildiziga boradi. Natijada hosildorlik 30 foizgacha ortadi. Ya'ni kam xarajat qilib, mo'l daromad olishga imkon beradi. 45 gektar yerda yomg'irlatib sug'orish texnologiyalari o'rnatganmiz. O'tgan yili 40-50 sentnerdan hosil ko'targan bo'lsak, joriy yilda 60-70 sentnerni mo'ljallab turibmiz.

Yurtimizda bunday zamonaviy sug'orish texnologiyalarini joriy etish uchun berilayotgan imtiyozlardan Muhammadjon Ortiqov kabi samarali foydalanayotgan fermerlar safi kengayib bormoqda. Qo'ng'iro't tumanidagi "Qonirali Muxammad" fermer xo'jaligi ham shundaylardan biri. — Fermer xo'jaligimiz tasarrufidagi 10 gektar ekin maydoniga yomg'irlatib

egatga plyonka to'shab sug'orish yo'lga qo'yiladi. Shuningdek, 30 ming 500 gektar yer lazerli tekislanmoqda.

— Bugungi kunda suvkredit.uz dasturiga 4780 gektar uchun 328 ta fermer xo'jaligining arizasi qabul qilindi, — deydi Qoraqalpog'iston Suv xo'jaligi vazirligi bosh mutaxassisi Abu Qidirboyev. — Irrigatsiya muhandislari tomonidan 189 fermerning 3462 gektar maydoni o'rganib



sug'orish texnologiyalarini o'rnatdik. Bugungi suv taqchilligi sharoitida bu texnologiya biz uchun ayni muddao bo'ldi. Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha suvkredit.uz elektron tizimi ishga tushirilgan. Kredit rasmiylashtirish jarayoni shaffofligi ta'minlangan, — deydi mazkur fermer xo'jaligi rahbari Qutlimurod Abdug'afrov. — Texnologiyalarni o'rnatuvchi korxonalar tomonidan kamida 2 yillik kafolat berilishi hamda 5 yil davomida servis xizmati ko'rsatilishi, kredit oluvchilarning ushbu korxonalar faoliyatini baholab borish tizimi yaratilishi bizga juda ma'qul kelmoqda.

Qoraqalpog'istonda joriy yilda 47 ming 150 gektarda suv tejoychi texnologiyalar joriy qilish rejalashtirilgan. Jumladan, 4 ming 150 gektarda tomchilatib, 1900 gektarda yomg'irlatib, 700 gektarda diskret usulida, 8400 gektarda egiluvchan quvurlar yordamida, 1500 gektarda

chiqilib, ijobiy xulosaga berildi. Shuningdek, o'rganish jarayonida 9 fermer xo'jaligining 81 gektar maydoni salbiy xulosaga berildi. Barcha tumanlarda arizalarni ko'rib chiqish, qazdorliklarni so'ndirish va platformaga kiritish bo'yicha choralar ko'rilmog'ida. Hozirgacha suvkredit.uz dasturi orqali 118 talabgomning 1991 gektar maydoni uchun 22 milliard 782 million so'm kredit moliyalashtirildi. Ayni vaqtgacha 56 fermer xo'jaligining 933 gektar maydonida o'rnatish ishlari boshlandi.

Orolbo'yida suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish eng dolzarb masalalar sirasiga kiradi. O'zdek misol, bir gektar joyni sug'orishga 6500 kub metr suv sarf qilinsa, tomchilatib sug'orishga 1200 kub metr suv yetadi. Bu besh barobar kam deganidir.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bandlik

DAVLATNING BEG'ARAZ YORDAMI

— Avval chet elda yollanma ishchi bo'lib ishlardim, — deydi Bag'dod tumanidagi "Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Abror Usmonov. — Pul topish uchun og'ir mehnat sharoitida ishlashga majbur edim. Yillab yaqinlarimni ko'rmadim. Uyga qaytgach, ishsizligim uchun "Yoshlar daftari" ga kiritildim. Endi hayotimni yaxshilash uchun ko'plab imkoniyatga egaman. "Mahalla yettligi" tavsiyasi bilan yashash joyimizga yaqin, suvga qulay 20 sotix ekin maydonini "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali 6 million 200 ming so'mga sotib oldim. Yer uchastkasi qiymatini 10 yilda teng ulushda foizsiz bo'lib to'lashim mumkin. Bu — juda katta imkoniyat. Qolgan qunt va halol mehnatga bog'liq. Ekin maydonida qalampir ko'chati parvarishlayapman. Chunki u bozorgir mahsulot. Ko'chatlarimiz tez kunlarda hosilga kiradi. Hosilni ho'l holatda ham, quritib ham sotish mumkin. Birinchi mavsumning o'zida 30 million so'mdan ziyod daromad olishni ko'zlab turibman. Mahsulot yetishtirish bilan birga qayta ishlash, ichki va tashqi bozorda sotish bo'yicha biznes loyihalar ustida ishlayapmiz.

Prezidentimizning "Yoshlarga yer ajratish orqali ularning daromadlarini oshirish va bandligini ta'minlash, shuningdek, yangi yer maydonlarini o'zlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori Abror kabi mehnatkash, maqsadi yo'lida sobitqadam yoshlarning orzu-niyati ro'yobida yordam berayotir.

"Yuksalish" mahalla fuqarolar yig'inidagi ijtimoiy himoyaga muhoj, ishsiz 25 yoshga "Boychipor uchquni" fermer xo'jaligiga qarashli 3,6 gektar unumdor yer taqsimlab berildi. Yoshlarning daromad topishiga ko'maklashish maqsadida bu maydonida "Bir kontur — bir mahsulot" tamoyili asosida 350 ming tup qalampir ko'chati ekilgan. 20 sotix yerga 6 mingdan ortiq qalampir ko'chati joy bo'ladi. Bu 6 tonnadan ziyod hosil olish mumkin, degani. Boz ustiga ortiqcha xarajatsiz, bozorgir mahsulot yetishtirish barcha uchun qulay. Mahallada "Peres Impeks" MCHJ kooperatsiyasi tashkil etilgan. U ko'chat yetkazib berish hamda parvarishlash bilan bog'liq agrotexnik jarayonlarda yosh dehqonlarga har jihatdan yordam beradi. Tayyor mahsulotni dalaning o'zidan sotib oladi.

— Bag'dod tumanining o'zida 1400 dan ortiq yosh bo'lgan imtiyozdan bahramand bo'ladi. Ularga 280 gektar unumdor yer maydoni "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali shaffof tarzda taqsimlab berilmoqda, — deydi tuman hokimi o'rinbosari Qahramon Mirzaqulov. — Mahallalarni o'rganish jarayonida "Yoshlar daftari", "Ayollar daftari", "Temir daftar" ga kiritilgan, ijtimoiy himoyaga muhoj oilalar, dehqonchilik qilish istagini bildirgan, yerga ehtiyojmand yigit-qizlar ro'yxati shakllantirildi. "Mahalla yettligi" tavsiyasi bilan shakllantiriladigan ro'yxatga kiritilgan yoshlar o'rtasida yerni ijaraga berish bo'yicha "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali elektron onlayn auksion o'tkazilmoqda. Shu yo'sinda yoshlarga dehqonchilik qilib, daromad topishi uchun o'zi yashayotgan hududdagi unumdor va sug'orishda muammo bo'lmaydigan maydondan yer ajratib berilyapti. Ko'chat, urug'lik, mineral



o'g'it, texnika vositalari bilan ta'minlanmoqda, malakali mutaxassislar birkiritilyapti. Yer egalari bilan hamkorlikda ishlovchi kooperatsiyalar tashkil etildi.

Farg'ona viloyatida ish o'rinlari yaratishning samarali yo'li taklif etilib, qo'llab-quvvatlanmoqda. Ayniqsa, yoshlarga yer ajratish orqali daromadini oshirish va bandligini ta'minlash borasidagi tashabbus yangi imkoniyat eshiklarini ochdi. Yer olish istagidagi 21 mingdan ortiq yigit-qizga "mahalla yettligi" tavsiyonomalari berildi. "E-auksion" elektron savdo platformasi orqali hozirga qadar 3921 yoshga maqsadli foydalanish uchun 876 gektar yer ajratildi. Bu maydonida zabzavat, kartoshka, poliz ekinlari, gul, ko'kat, makkajo'xori, dukkakli va moyli ekinlar yetishtirish bilan bog'liq amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Uchko'prik tumanidagi "Sulton" mahalla fuqarolar yig'inida ijtimoiy daftarlarga kiritilgan 22 yigit-qizga

"Far Eson dehqon" fermer xo'jaligi dala maydonidan unumdor yer ajratib berildi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishdan sotishgacha bo'lgan zanjimni qamrab olgan yangi tizim yoshlarni har jihatdan qo'llab-quvvatlamog'ida. — Menga ham unumdor yer ajratib berildi. Shu yerda ishlab, halol mehnat qilib, oilamiz daromadini oshishiga hissa qo'shmoqchiman, — deydi "Sulton" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi Muhammad Yusuf Turg'unov. — Kartoshka, qizil loviya, ismalog' ekib, bir mavsumda uch marta hosil ko'tarib, mo'may daromad olishni ko'zlayapman. Chetga ish izlab borishga ham zarurat yo'q. Bu bizga berilgan ulkan imkoniyat. Undan maqsadli foydalanib, turmushimiz farovon bo'laveradi.

Ajratilgan yer nafaqat yoshlar bandligini, balki qishloq xo'jaligi mahsulotlari mo'l-ko'lligi, bozorlar to'kinligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatli.

Rasuljon KAMOLOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

PREZIDENT QARORLARI — HAYOTDA VA NAZORATDA

MA'NAVIYAT SEKTORI — YANGI HARAKAT, YANGI KUCH

Buyuk allomalarga beshik bo'lgan ko'hna zamin tajribasi

Surxondaryo ma'rifat, madaniyatdan dunyoga saboq bergan Imom at-Termiziydek donishmandlar yurti, jasorat, vatanparvarlik, sadoqatda g'animni ham lol qoldirgan Alpomislar diyori.

Bejiz ma'naviyat sektori faoliyati mazkur hududda tajriba tariqasida yo'lga qo'yilmadi. Bunda ham o'ziga xos ma'no bor, ma'naviyat debochasi mamlakatimizning ana shunday janub javohiridan boshlanmoqda.

Ma'naviyat sektorining asosiy vazifasi nima? Keling, shu o'rinda ushbu savolga javob berib o'tsak. Mazkur yangi sektor shahar va tumanlar, hududlarning ijtimoiy-ma'naviy muhitini ta'minlash va bu borada tegishli mahalliy davlat hokimiyati organining ko'maklashuvchi kollegial ishchi tuzilmasi, hududiy ma'naviyat va ma'rifat kengashlarining ishchi organi hisoblanadi.

Buni yana ham soddalashtirib aytadigan bo'lsak, bir inson oilada tug'ilib, mahallada ulg'ayib, ta'lim maskanida ilm oladi. Ma'naviyat sektorining asosiy vazifasi ushbu jarayonda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash, shu asosda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan. Bu jarayon esa doimiy monitoring tizimi orqali tahlil qilinib, ilmiy asoslanib, amaliy harakatlar bilan boyitib boriladi.

Pirovard maqsad esa bitta — bugungi tahlikali zamonada bizni ham chetlab o'tmayotgan mafkuraviy tahdidlarga qarshi dadil kurashish, qat'iy ishlash, samarali natija ko'rsatishdir.

Shu o'rinda bir jihatga ahamiyat qaratish lozim. Bugun har birimiz ezuq maqsadimizga yetishda amalda vatan himoyachisi bo'lishimiz, yoshlarimizni ham shu ruhda kamol toptirishimiz zarur. Buning uchun har birimiz g'oyaviy jangchi'ga aylanishimizni zamon talab qilmoqda, davr taqozo etyapti. Shu sababli avval amalga oshirmoqchi bo'lgan ishlarimizning mohiyatini, g'oyasini, mazmunini har taraflama ilmiy asoslab, o'rganib, tahlil qilib olishimiz zarur. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan olimlar, tadqiqotchilar, ziyolilar, soha mutaxassislari ishtirokida har bir tizimda yangi sektor "qanday ishlaydi?", "nima deydi?", "qanday nafas oladi?" kabi savollarga javob topish maqsadida ishchi guruh tuzildi. Markaz tomonidan hududlarda ushbu sektor faoliyatini namunali yo'lga qo'yish uchun ularning infratuzilmasi, ijtimoiy-ma'naviy muhit hisobga olingan alohida namunaviy metodik qo'llanmalar, tavsiyaviy yo'riqnomalar yaratildi.

Jumladan, Surxondaryo viloyatidagi boshqarma boshliqlari, oliy ta'lim muassasalari rektorlari 15 ta tuman (shahar) ma'naviyat sektoriga mas'ul etib belgilangan. Shu maqsadda 454 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 960 ta maktab, 54 ta professional ta'lim va 7 ta oliy ta'lim muassasasi, 724 ta mahalla, 360 ta boshqarma va tashkilotda ma'naviyat



Zamon yangi, davr yangi, targ'ibot aslo eski bo'lmasligi kerak

sektorining boshlang'ich tayanch tuzilmalari tashkil etilgan.

Mazkur sektorlarning barchasiga alohida xona ajratilgan. Xonalar shunchaki o'tirish uchun emas, unda ham ma'rifat aks etishga e'tibor qaratilgan.

Sektorning mahalla bo'g'inini tashkil etishda Andijon viloyati Marhamat tumanidagi "Dukchi Eshon", Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanidagi "Qirsadaq" mahalla fuqarolar yig'ini tajribasi o'rganildi.

Joriy yil 16-aprel kuni Termiz shahrida "Ma'naviyat sektori"ni "Surxondaryo tajribasi" misolida namunali yo'lga qo'yish mavzusidagi respublika seminari tashkil etildi. Unda yurtimizning barcha hududlaridan mazkur yo'nalishga mas'ul rahbar va xodimlar ishtirok etdi. Seminardan maqsad — hududdagi tajribani o'rganish, amaliy jihatlariga e'tibor berish, barcha mas'ullar o'z hududlarida qanday qilib sektor faoliyatini tashkil qilish borasida ko'nikmalarga ega bo'lishiga erishishga qaratildi.

yoshlar bilan bir qator uchrashuvlar o'tkazildi, yangi loyihalar rejasini tuzildi, yosh ijodkorlar uchun grantlar ajratish, bolalar uchun milliy qahramonlar yaratish kabi bir qator vazifalarni amalga oshirish maqsad qilingi.

Aytish lozimki, "Yangi kuch" ijtimoiy harakati, "Ibrat maktabi" konseptiyalariga nafaqat topshiriq jiroi, balki yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan yangicha metodik dastur deb qarashimiz, bu borada yoshlarning tafakkuri, dunyoqarashidan kelib chiqib, samarador mexanizmlarni yangilab borishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Barcha hududlarda ma'naviyat sektorini joriy qilishda, albatta, yoshlar tarbiyasi, ma'rifati, zamonaviy fikrlari, vatanparvarligini rivojlantirish e'tiborimiz markazida bo'ladi. Negaki bugungi tarbiya, ma'rifat, vatanparvarlik millat ertasi, vatan taqdiri, yurt kelajagi, deganidir.

Ziyolilar barchani uyg'otuvchi, yetaklovchi kuchga aylanishi shart

Biz bugun ma'naviyat va ma'rifat ishini yangi pog'onaga ko'tarish uchun, avvalo, faol fuqarolarga ehtiyoj sezamiz. Shu sababli hozir Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida olimlar, soha mutaxassislari tomonidan "Faol fuqaroni shakllantirish" konseptiyasi loyihasi tayyorlanmoqda.

Konsepsiyada to'ona qornidaligidan boshlab ulg'ayuncha bolaga beriladigan e'tibor, tarbiya, ma'rifatiy ozuqa asoslari yaratilmoqda. Bunda tadqiqot natijalariga tayanib, yoshlarning psixologik va fiziologik xususiyatlari ham inobatga olinmoqda.

Uyg'otuvchi kuchga aylanishi shart bo'lgan ma'naviyat va ma'rifat ishini yangi pog'onaga ko'tarish uchun, avvalo, faol fuqarolarga ehtiyoj sezamiz. Shu sababli hozir Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida olimlar, soha mutaxassislari tomonidan "Faol fuqaroni shakllantirish" konseptiyasi loyihasi tayyorlanmoqda.

Uyg'otuvchi kuchga aylanishi shart bo'lgan ma'naviyat va ma'rifat ishini yangi pog'onaga ko'tarish uchun, avvalo, faol fuqarolarga ehtiyoj sezamiz. Shu sababli hozir Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida olimlar, soha mutaxassislari tomonidan "Faol fuqaroni shakllantirish" konseptiyasi loyihasi tayyorlanmoqda.

Uyg'otuvchi kuchga aylanishi shart bo'lgan ma'naviyat va ma'rifat ishini yangi pog'onaga ko'tarish uchun, avvalo, faol fuqarolarga ehtiyoj sezamiz. Shu sababli hozir Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida olimlar, soha mutaxassislari tomonidan "Faol fuqaroni shakllantirish" konseptiyasi loyihasi tayyorlanmoqda.

Uyg'otuvchi kuchga aylanishi shart bo'lgan ma'naviyat va ma'rifat ishini yangi pog'onaga ko'tarish uchun, avvalo, faol fuqarolarga ehtiyoj sezamiz. Shu sababli hozir Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazida olimlar, soha mutaxassislari tomonidan "Faol fuqaroni shakllantirish" konseptiyasi loyihasi tayyorlanmoqda.

topish siyosat darajasiga ko'tarildi. Har bir muhim davlat siyosati, avvalo, xalq bilan kelishilib, hamfikrlikda, hamjihatlikda amalga oshirilmoqda.

Har qanday islohotning samarasi jamiyatning unga bildirayotgan munosabati, fidoyiligi, tashabbuskorligi va daxldorligiga bog'liq. Zotan, ma'rifatparvar bobolarimiz "Tilda, fikrda, ishdan birlilik", degan. Bugun oldimizga qo'yilgan maqsad va vazifalarni bajarish uchun barchamiz birlashishimiz kerak, harakatlarimizni bir kuchga aylantirishimiz kerak, tarbiya, ma'rifat yangi harakatcha aylana oladi.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Mudofaa vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Kinematografiya milliy agentligi va boshqa qator vazirlik hamda tashkilotlar bilan hamkorlikdagi rejalarimizni birlashtiryapmiz, maqsadli memorandumlarni imzolayapmiz. Hamkorlikda boshlayotgan ishlarimiz topshiriqlarni hayotda va amalda samarali bajarish, soha faoliyatini yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarishga xizmat qiladi, albatta.

Dastlabki natija sifatida hozir Kinematografiya milliy agentligi bilan hamkorlikda "Biz bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — vatanimiz" shiori ostida chekka hududlarda turli loyihalar, "Kinokarvon" aksiyalari o'tkazib kelinmoqda.

Bugungi tahlikali zamonada Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi ziyolilar kuchi, ularning fidoyiligi, uyg'otuvchi, shijoatli yoshlar harakati, minbari, ovozigacha aylanishi lozim. Xususan, "Yashil makon" umummilliy harakati doirasida barcha ziyolilarni birlashtirib, markaz tashabbusi bilan Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumanida "Ma'rifat bog'i" yaratildi. Bu harakat ziyolilarning kelajak oldidagi mas'uliyati, vijdoni ishi sifatida barcha hududlarda davom ettirilishi belgilandi.

Zero, ma'rifatparvar bobomiz Cho'lpon qayd etganidek, "Millatni uyg'otish — uyg'onganlarning vazifasi". Shu ma'noda ma'naviyat sektori ziyolilarning yangi harakati, barchani uyg'otishni oldinga maqsad qilib qo'ygan ezuq tashabbusidir.

Otabek HASANOV, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi rahbari

Boshlanishi 1-betda

Xususan, joriy yilning 2-5-aprel kunlari Qashqadaryo viloyati, 15-18-aprel kunlari Sirdaryo viloyatida topshiriqlar jiroi, ushbu hududlarda ma'naviy-ma'rifat muhit barqarorligini ta'minlash borasidagi faoliyat ishchi guruh tomonidan tahliliy o'rganildi. O'rganish natijalari bo'yicha viloyat hokimi, viloyat Ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisi bilan birgalikda tanqidiy-tahliliy yig'ilish o'tkazildi.

Yig'ilishda asosiy maqsad mazkur o'rganish natijalarini tahlil qilish, kamchiliklarni ko'rsatish, muammolarni o'rtaga tashlash, yechimini kutayotgan masalalar bo'yicha takliflar berishga qaratildi.

Hududlarda bu kabi o'rganish ishlari olib borilishi natijasida tizimdagi faoliyat tahlil qilinadi, kamchiliklar ko'rsatiladi, muammolar o'rganiladi, takliflar ishlab chiqiladi. Maqsad bitta — faoliyatimizni shaffof, maqsadli, natijali, samarali amalga oshirish.

Shu o'rinda aytish lozimki, ayni kunga qadar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror, farmoyishi hamda yig'ilish bayonlarida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markaziga 870 ta topshiriq belgilandi. Shundan 753 tasining jiroi ta'minlandi, 117 tasi bajarilmoqda.

Shuningdek, joriy yilning birinchi choragi davomida ma'naviy-ma'rifat faoliyatiga doir jami 54 ta topshiriq belgilab berilgan. Ularning jiroi tegishli tartibda bajarildi.

Zero, mas'uliyat, qat'iy tartib, ijro intizomi oldimizga qo'ygan maqsadlarimizga yetishimizda eng yaqin ko'makchidir.

UYG'OQ FIKR

Boboravshan G'OZIDDINOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Uyimiz yonidan tuman markaziga qatnaydigan mashinaning orqa o'ringidagi joy oldim. O'rta qatorda ikki ayol, biri to'g'a, boshqasi nabirasini bog'chaga olib yo'lga chiqqan. Mahalla odamlari bir-birini yaxshi taniydi. Ikki ham pensiya yoshidagi mahalladosh yangalarimiz bemalol guring qilib, kulishib ketib borardi. Bir mahal: "Sen nega menga qozoqcha gapiryapsan?!" dedi Ulken yanga yolg'ondakam po'pisa bilan. Unga javoban Bahor yanga ham bo'sh kelmadi: "Men ham sizga o'xshab cholimning tilida gapiryapman, jense", dedi. Mashinada o'tirganlar birdaniga kulib yubordik. O'zbekcha gapirishni talab qilgan yanganing millati qozog' o'zbek oilasiga kelin bo'lgan. Bahor yangada esa buning aksi.



Uyimiz yonidan tuman markaziga qatnaydigan mashinaning orqa o'ringidagi joy oldim. O'rta qatorda ikki ayol, biri to'g'a, boshqasi nabirasini bog'chaga olib yo'lga chiqqan. Mahalla odamlari bir-birini yaxshi taniydi. Ikki ham pensiya yoshidagi mahalladosh yangalarimiz bemalol guring qilib, kulishib ketib borardi. Bir mahal: "Sen nega menga qozoqcha gapiryapsan?!" dedi Ulken yanga yolg'ondakam po'pisa bilan. Unga javoban Bahor yanga ham bo'sh kelmadi: "Men ham sizga o'xshab cholimning tilida gapiryapman, jense", dedi. Mashinada o'tirganlar birdaniga kulib yubordik. O'zbekcha gapirishni talab qilgan yanganing millati qozog' o'zbek oilasiga kelin bo'lgan. Bahor yangada esa buning aksi.

quvonganini his etish mumkin. Faxr, quvonch va hayajon qorishiq tuyg'u sabab tanamda chumoli yurganday bo'ladi. Ayni dam ulovdagi mahalladoshlarim ham, hatto jonsiz mashina xuddi shu hissiyot ichra ketayotganday edi go'yo. Boshqa davlat fuqarosi, o'zga millat vakili yurtingni olqishlab, xalqingni maqtasa, ko'nglingdan shunday tuyg'ular kechar ekan-da! Keyingi yillarda jahon siyosiy qiyofasi tubdan o'zgardi. Vaziyat eng kuchli tahlilchilarni ham o'ylantirib qo'ydi. Xalqaro aloqalarda do'stlik nisbiy tushunchaga aylanib bo'ldi. Ijtimoiy tarmoqlarda urushning

ayanchli manzarasini yurak hovuchlab kuzatib boryapmiz. Go'daklar yig'isi, ularning abgor holatdagi surati, eng dahshatli, bolasingning jonsiz jasadini bag'riga bosgan ona nolasi... Bularning hech biri dunyoga hukmronlik qilish istagidagi kuchlarni o'ylantirayotgani yo'q. Nafsigah qul bo'lganlar boshqalarga egalik qilish ilinjida o'q otishdan to'xtamayapti.

Ayni vaziyatda ko'p vektorli siyosat yuritish, tinchlikni saqlash oson emas. U murakkab va og'ir yulush ekanini xalqaro siyosatni oz bo'lsa-da, o'rgangan odam yaxshi biladi. Ana shu vaziyatda iqtisodiy jihatdan barqaror, kadrlar masalasida yetakchi bo'lgan davlatlarga yutadi. Chunki aynan shu jihatlar mamlakatning boshqalarga qarag'indagi maksimal darajada kamaytiradi. Ichki imkoniyatlar ko'lami esa mustaqillikni mustahkamlaydi.

Shu bilan birga, tili, qadriyatleri, e'tiqodi bir mamlakatning bitta maqsad atrofida jamlanishi yuqoridagi aytilgan omillarni tez va izchil rivojlantirib borishda qo'l keladi. Shu ma'noda O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalarni mustahkamlash tashabbusi, shu yo'nalishdagi amaliy qadamlari beqiyosdir.

Darhaqiqat, mamlakatimizning mintaqada davlatlari bilan munosabatlari mulqoq yangi bosqichga ko'tarildi. Siyosiy mulqoq faollashdi. Natijada savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy aloqalar kengaytirildi. Hatto hududlararo hamkorlik yo'lga qo'yildi. Masalan, janub viloyatlarimiz mas'ullari Tojikistonda mehmon bo'lib, hamkorlik hujjatlarini imzolasa, Toshkent viloyati mutasaddilari qozog'istonlik hamkasblarini kutib olmoqda. Ya'ni munosabatlarni yuqoridan quyigacha yetib bordi. Endi quyi tizimdagi izchil hamkorlik yuqori darajadagi

ittifoqchilikka zamin yaratmoqda. Raqamlar ham shunga yarasha. Deylik, 2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston — Qozog'iston o'zaro tovar ayiriboshlash hajmi 4,4 milliard dollarga yetdi. Quvonarlisi, 2016-2023-yillarda davlatlarimiz o'rtasidagi bu ko'rsatkich ikki barobardan ko'prog' oshgan.

Tojikiston bilan bog'liq raqamlar ham kishini quvontiradi. Masalan, 2017-yilda ikki mamlakat o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi 237,9 million dollarini tashkil qilgan edi. O'tgan davrdagi ishonchli va do'stona munosabatlar sabab bu ko'rsatkich 2023-yil yakuniga kelib, uch barobar oshdi. Bugungi kunda O'zbekistonda tojik kapitali ishtirokida 289 ta, Tojikistonda esa mamlakatimiz rezidentlari ishtirokida 71 ta korxonaga faoliyat yo'lga qo'yilgan. Qirg'iziston bilan tovar ayiriboshlash 5, Turkmaniston bilan esa 3 barobar ko'paygan.

Bundan tashqari, madaniy-ma'rifat, logistika, energiya va suv, tabiatni asrash kabi hayotimizning barcha jabhalarini qamrab oladigan aloqalarda yangicha ruh, kayfiyat kuzatilmoqda. Xalqimiz qiyomatda ham odamning qanday ekanini ko'shnanid so'raladi, deydi. Shu bois, tansiq taom pishirganda qo'shni haqqi deya boshqalarga ulashamiz. Aynan shunday qadriyatlar hamsoylarimiz bilan munosabatlarni mustahkamlaydi. Bir-birimizga hurmatimiz, mehrimiz oshadi. Darvozasiga qulf osilmagan uyimizda hech kim yo'q bo'lsa ham ko'chada xotirjam yuramiz. Mamlakatlar o'rtasidagi yaqin qo'shnihilik munosabatlari ham xuddi shunday. Xalqaro siyosatda do'stlik nisbiy tushuncha bo'lib turgan paytda manfaatlari mustarak qo'shnilarning tom ma'noda ittifoqchi ekaniga shubha yo'q. Davlatimiz rahbari Tojikistonga navbatdagi safari chog'ida tarixiy hujjatga

imzo chekdi. Shu orqali hamkorligimiz yangi va ortga qaytmas bosqichga ko'tarilgani e'tirof etildi.

Shular haqida o'ylab, mashina oynasidan tashqariga qarayman. Opoq bo'lib qiyg'os gullagan tog'olcha ko'zni oladi. Ularga qo'shilib yo'l chetidagi uylar ham ulov tezliligiga monand lipillab o'tadi. Xayolimni yaqin o'n yillik xotiralarga egallaydi. O'shanda onam kunda-kunora Tojikistonda yashaydigan opasini eslar, ko'risha olmayotganidan o'kinardi. Keyin o'zi tug'ilib o'sgan qishloq, ota hovlisi yonidan oqib o'tgan Kofarimhon daryosi yodiga tushardi. Onam bolaligi o'tgan qishloqni, odamlarni, qo'shni mamlakatda yashaydigan opasi kabi daryoni ham sog'ingan edi. Mashinada yo'lga chiqilsa, yarim kun vaqt ketmaydigan masofadagi sog'inch yillarga cho'zilib borardi. Negaki Tojikistonga borish uchun o'sha davlatning fuqarosi chagriq xati yuborishi kerak edi. Buning uchun davlatlarning poytaxtiga borish zarur bo'lardi. Buni qarangi, Tojikistonda yashaydigan xolamning qizlari bizning yurtga kelib bir oy yashaydi. O'shanda bu oilaning azobi — onaning ayrilqidan, bolaning sog'inchdan qo'shni kotasiga botib ketganini tasavvur etish mushkul.

Hozir shu gaplarni yozayman-u, o'tgan voqealarga o'zimgin ham ishongim kelmaydi.

Vaholanki, bu kunlarni qarindoshlarimiz bilan boshimizdan o'tkazdik. O'tgan qishning sovug'i yo'q, deb shunga aytishsa kerak-da. Shukrki, bugun manzara mulqoq boshqacha. Buni do'stona siyosat natijasi, degan rasmii iboraning o'zi bilan to'la izohlab bo'lmaydi. Uni oddiy odamlar hayotidagi o'zgarishlar orqali his etish mumkin. Boringin misol, hozir xolamning qizi O'zbekiston fuqarosi bo'lgan. Istalgan vaqtda ota uyiga borib, yaqinlari, onasi holidan xabar oladi. Tog'am ko'ngli tusagan vaqtda mashinasini opa-singillar darvozasiga o'nglab: "Bo'linglar, opamni ko'rib kelamiz!" deydi va qo'shni mahallaga ketayotganday Tojikistonga borib keladi. Holbuki, ular yillar davomida bir-birini ko'rishga mushqoq edi. Ularning avvalgi va hozirgi holatini hech bir so'z, obraz bilan ifodalab bo'lmaydi.

Qadimda xalqlar o'zini ulkan qal'a bilan himoya qilgan. Dushman qo'rg'on devorini buza olmasligi uchun qal'ani aylantirib sun'iy ko'l hosil qilingan. Himoya devorida soqchilar doim hushyor turgan. Qo'rg'on qancha mustahkam bo'lsa, g'anim shuncha olibdan aylanib o'tgan. Negaki ishg'ol qilish dushvor bo'lgan qal'a sabab vaqtni behuda sarf qilishdan, mag'lubiyatdan cho'chigan. Hozirgi tahlikali zamonada himoyaning ushbu turi bir oz boshqacha qiyofa kasb etadi. Ya'ni davlatlarimiz ichan, Markaziy Osiyo esa umumiy bo'lgan dishan qal'amizdir. Illo, Xiva shahri Turkiy dunyo poytaxti axiri!


Birdamligimiz, iqtisodiy hamkorlik sabab moddiy barqarorlik va madaniy aloqalar orqali xalqlarimiz o'zaro hamjihatligimiz himoya devorimiz, suv to'ldirilgan ko'limiz hisoblanadi. Shu ma'noda oddiy odamlar orasidagi samimiy munosabat davlatlar o'rtasidagi do'stona siyosat mahsulidir.



NATIJA kutilganidan YUQQORI

III Toshkent xalqaro INVESTITSIYA FORUMIDA 26,6 MILLIARD dollarlik KELISHUV IMZOLANDI

Buyuk ipak yo'li qadimda Sharq va G'arbni bog'lovchi asosiy karvon yo'li bo'lgan. O'zbekiston hududidan o'tuvchi mazkur yo'l orqali xorijlik savdogarlar Markaziy Osiyoga kelib, savdo aloqalarini mustahkamlagan. Oradan asrlar o'tib, mamlakatimiz yana shu maydonning asosiy ishtirokchisiga aylangan. Dunyo ishbilanmonlari va sarmoyadorlari O'zbekiston orqali Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantiryapti. O'tgan hafta poytaxtimizda bo'lib o'tgan III Toshkent xalqaro investitsiya forumi esa qit'aning eng muhim iqtisodiy platformasi sifatida e'tirof etilmog'ida.



Iroda TOSHMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Xalqaro anjuman nafaqat yurtimiz, balki jahon ahlida ham katta qiziqish uyg'otib, kun mavzusi bo'lib turdi. Tadbirga tayyorgarlikdan tortib, o'tkazish jarayonining barcha bosqichida katta format, keng ko'lam kuzatildi. Axir dunyoning mashhur kompaniyalari, ishbilanmon va investorlarini kutib olish, o'zaro mulohazalarini yaratib, manfaatli kelishuvlarga erishish oson ish emas. Qolaversa, bu yil uchinchi bor o'tkazilgan forum ishtirokchilari soni rekord darajaga yetgan. 93 mamlakatdan 2,5 mingdan ziyod vakil ayni shu xalqaro anjumanda qatnashish maqsadida keldi.

Ular orasida xorijiy hukumat vakillari, xalqaro korporatsiyalar, moliya institutlari va banklar rahbarlari, iqtisodiyot hamda investitsiya bo'yicha mutaxassislarni uchratish mumkin. Mehmonlarning kun tartibi ancha tig'iz bo'ldi. Anjuman doirasidagi 40 dan ortiq tadbirga ishtirok etdi. Anjuman ikki va ko'p tomonlama hamkorlikni kengaytirish, eng dolzarb muammolarni muhokama qilish, ilg'or g'oya va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun samarali mulohazalarini yaratish uchun. Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumini 30 mamlakatdan kelgan 100 dan ortiq xorijiy ommaviy axborot

vositasi yoritib bordi. "CNN", "Euronews", "London Post" va "Associated Press" kabi yetakchi nashrlar forum haqida maqolalar e'lon qildi. Ularda xorijlik ishbilanmonlarning iliq fikrlari, xolis baholarini o'qish mumkin.

Xalqaro anjuman xorijlik ishbilanmonlarga O'zbekistonning investitsiya salohiyati bilan tanishish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi, — deydi Misrdagi "IRSC Sullex" kompaniyasi raisi Endryu Deniyel. — Biz bu mamlakatga sarmoya kiritishdan manfaatdormiz. Chunki bu yerda investitsiya uchun jozibador muhit yaratilgan. Ayniqsa, davlat rahbarining mamlakat ravnaqi, yangi loyihalarni ilgari surish yo'lidagi faolligini ko'rib, qiziqishimiz yanada oshdi. Bu bizni investitsiya kiritish orqali ana shu mamlakat taraqqiyotiga hissa qo'shishga undamoqda. Forumdagi ishtirokimiz samarali bo'ldi. Qadoqlash, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoati, o'qimachilik tarmoqlarida logistikani rivojlantirish bo'yicha shartnoma imzoladik. O'zbekistonga xomashyoni eksportkor tayyor mahsulotga aylantirishga ko'maklashamiz. Kelgusida logistika parkini barpo etish rejamiz bor. Ishonchim komikli, mazkur anjuman orqali O'zbekiston iqtisodiyotiga yana ko'plab sarmoyalar kirib keladi.

Yirik tarmoqdagi salmoqli loyihalar

Xalqaro forum yakunida e'tirofqa arzigulik natijalar qayd etildi. O'zaro mulohazalarida umumiy qiymati 26,6 milliard dollarga teng kelishuv imzolandi. O'tgan yili bu raqam 11 milliard dollarni tashkil etgan edi. O'shanda imzolangan loyihalar bugun faol amalga oshirilib, barcha soha rivojida yetakchi o'rin tutmoqda. Endi ular qatoriga yangilari qo'shildi.

Joriy yilgi hamkorlik va erishilgan kelishuvlar nafaqat qiymat, balki ko'lam jihatidan ham ancha keng. Xususan, Saudiya Arabistonining "Data Volt" kompaniyasi bilan hamkorlikda Yangi Toshkentda shahar infratuzilmasi va yashil texnologiyalarga asoslangan "ma'lumotlar markazlari" qurish, "ACWA Power" kompaniyasi bilan umumiy qiymati 6,2 milliard dollarlik loyiha — Qoraqalpog'istonda quvvati 5 gigavattli shamol elektr stansiyasi

hamda 2 gigavattli elektr energiyasini saqlash qurilmalari qurish, Xitoyning "Shaynxy Knud International" kompaniyasi bilan hamkorlikda Namangan viloyatida o'qimachilik mahsulotlari, Singapurning "Vilmar International" kompaniyasi ishtirokida Toshkent viloyatida oziq-ovqat mahsulotlari va chorva uchun oziq-ovqat ishlab chiqarish singari yirik investitsiya loyihalari shular jumlasidan. Qolaversa, forum

sa'y-harakatlarga guvoh bo'ldik. Bu birgalikda ishlashimizni osonlashtiradi.

Bu galgi forumda avvalgi yildagidan salkam ikki barobar ko'p xorijlik delegat ishtirok etgani ham jahon maydonida yurtimizning investitsiyaviy imkoniyatiga ishonch ortib borayotgan dalolat. Masalan, xorijdan kelgan sarmoyador mamlakatimizdagi biron soha mablag' kiritib, erkin ishlay olsa,

Sarmoyadorlarni nima qiziqiryapti?

Forum dasturi tadbirlarga boy bo'ldi. Panel uchrashuvlar, davra suhbatlari, sessiyalar davomida chet ellik va mahalliy ishbilanmonlar investitsiya sohasini rivojlantirish tendensiyalari, raqamlashtirish, "yashil" energetikani rivojlantirish, elektron tijorat hamda xalqaro



doirasida qator yirik kompaniyalar bilan qiymati 6,6 milliard dollarga teng yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Mazkur keng ko'lamli forumda ilk bor ishtirok etdik va u haqiqatan barcha investorlarni birlashtirgan noyob platforma ekaniga guvoh bo'ldik, — deydi BAA'dagi "Amea Power" kompaniyasi rivojlanish loyihalarini katta direktori Basma Bentaxer. — Bu yerda mamlakatimizning barcha idora vakillari bilan bir joyda uchrashish imkoniyati berildi va bu investorlar uchun juda qulay. Kompaniyamiz Dubayda joylashgan. O'zbekiston Markaziy Osiyodagi ilk hamkorimizdir. Forum doirasida Qoraqalpog'istoning Qo'ng'iroq tumanida umumiy quvvati ming megavatt bo'lgan shamol elektr stansiyasi qurilishi loyihasini muhokama qildik va shartnoma imzoladik. Loyihaning umumiy qiymati 1,1 milliard dollar bo'lib, kelasi yilning fevralida ish boshlaydi. Ushbu stansiya ishga tushirilishi natijasida yiliga 3,5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish, 1,060 milliard kub metr tabiiy gaz zaxirasi tejalishi mumkin. Shuningdek, 1,48 milliard tonna zararli gaz atmosferaga chiqishini oldi. Bundan tashqari, yana bir yangi loyiha bo'yicha ham kelishuvga erishish arafasidamiz. Shunday qilib, O'zbekiston bilan hamkorlikda ikkita loyihamiz bor va natijadan mamnunmiz. Forum doirasida mamlakatning investitsiya salohiyati bilan tanishar ekanimiz, investorlarni jalb qilish, ko'plab-quvvatlash borasida faol

imtiyozlardan foydalansa, daromadiga o'zi egalik qilsa, boshqalar ham qiziqadi. Investorlarning ko'payishi ortidan esa mamlakatimiz iqtisodiyoti yanada o'sadi, sohalari rivojlanib, ko'proq ish o'rni yaratiladi.

Forumning yalpi majlisida shu jihatlar uchun berildi. Davlatimiz rahbarining nutqida chet ellik investorlar uchun taqdim etilishi kutilayotgan yangiliklar ma'lum qilindi. Ular orasida Toshkentda Xalqaro tijorat sudi ish boshlashi, maxsus iqtisodiy zonalar faoliyati muddati bo'yicha cheklovlar bekor qilinishi kabilor bor.

miqyosda iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish kabi dolzarb masalalarni muhokama qildi. Ayniqsa, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashda davlat, tadbirkorlar hamda investorlar o'rni masalasi markaziy mavzulardan biriga aylandi.

Shu bilan birga, axborot texnologiyalari, turizm, ta'lim, tibbiyot kabi sohalarda ham O'zbekistonda tez rivojlanib borayotgan. Toshkent xalqaro investitsiya forumida ushbu yo'nalishlarga ham investorlar e'tibori jalb etildi. Xususan, "IT-Park Uzbekistan: yangi rivojlanish istiqbollari" mavzusidagi pitch-sessiyada mamlakatimizni 2030-yilga qadar mintaqaviy



Nuqtayi nazar

Jasurbek OTANIYAZOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor



Jahon moliya va tovar bozoridagi konyunkturaviy tebranishlar sharoitida xalqaro biznes vakillari uchun barqaror, ishonchli moliyaviy muhit hamda bozorga kirib borish va faoliyat yuritish muhim ahamiyat kasb etadi. Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi yirik investorlar, xorijiy hamda mahalliy biznes vakillarini bir joyda jamlab, ular manfaatli kesishadigan nuqtalarni topish, muayyan investitsiya loyihalarini o'rganish, o'nlab yo'nalishlardagi zamonaviy tendensiyalarni muhokama qilish va istiqbolli takliflar uchun qulay zamin yaratadi.

Forum barqaror o'sish sur'ati, xorijlik sarmoyadorlar uchun qulay investitsiyaviy muhitga ega hamda Markaziy Osiyoning haqiqiy investitsiya markaziga aylanib borayotgan O'zbekiston salohiyatini namoyon etishda alohida o'rin tutdi. Binobarin, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonini jadallashtirish hamda liberalashtirishga doir qator islohotlar

amalga oshirildi. Jumladan, tashqi siyosatda keskin o'zgarishlar ro'y berdi. Taraqqiyotning yangi bosqichida O'zbekiston ilgari kuzatilmagan faol, ochiq, pragmatik va amaliy tashqi siyosat yuritmoqda. O'lis va yaqindagi barcha davlatlar bilan uzoq muddatli, ko'p qirrali sheriklik aloqalarini kuchaytirish bo'yicha faol chora-tadbirlar ko'riyapti. Buning natijasida

mamlakatimiz nufuzi oshib, xalqaro miqyosdagi o'rni mustahkamlanmoqda.

Yurtimizga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun qulay investitsiyaviy va ishbilanmonlik muhitini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar qo'llandi. Jumladan, valyuta bozori liberalashtirildi, xorijiy investorlar tomonidan

foydani repatriatsiya qilish bo'yicha barcha cheklov bekor qilindi, qulay fiskal tizim yaratildi. Xorijiy investorlar aksiyasidan oladigan dividendlar uch yil muddatga foyda solig'idan ozod qilindi. Investorlar uchun zarur bo'lgan 7 mingdan ziyod xomashyo va tovarga bojxona boji hamda litsenziya va ruxsat berishga oid

INTEGRATSIYALASHUV SARI MUHIM PLATFORMA



132 ta hujjat bekor qilindi, 33 tasi bo'yicha xabardor qilish tartibi kiritildi.

Toshkent xalqaro investitsiya forumi strategik tashabbuslarni muhokama qilish va xalqaro biznes hamjamiyatiga O'zbekistonning investitsiyaviy imkoniyatini namoyish etish uchun yangi platforma vazifasini o'tamoqda. Forumning dolzarbligini ishtirokchi davlatlar geografiasiy yildan yilga kengayayotgani hamda xorijlik investorlar va biznes vakillari soni ortib borayotganidan ham ko'rish mumkin. 2022-yilda o'tkazilgan birinchi xalqaro investitsiya forumida 7,8 milliard dollarlik 105 ta, 2023-yilda umumiy miqdori 11 milliard dollarga teng 164 ta investitsiya shartnomasi imzolandi. Joriy yilgi forum avvalgilaridan ancha samarali kechdi: 93 mamlakatdan 2,5 mingdan ziyod ishtirokchi kelib, 26,6 milliard dollarlik kelishuvga erishildi.

Forum doirasida xorijlik sheriklarga O'zbekiston hududlarining investitsiya salohiyati va 160 dan ortiq yirik loyiha taqdimot qilindi. "Yashil" energetikadan innovatsion sanoatgacha, qishloq xo'jaligidan iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirishgacha bo'lgan yo'nalishlarda, shuningdek, sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirishga kelishib olindi. Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Xalqaro

axborot texnologiyalari markaziga aylantirish rejalarini taqdim etildi. Raqamli texnologiyalar vaziri Sherzod Shermatov bu yo'nalishdagi investitsiyalar ahamiyati haqida bunday dedi: "Saudiya Arabistonining "Data Volt" kompaniyasi ishtirokida "yashil" texnologiyalarga asoslangan "ma'lumotlar markazlari" qurilishi katta voqea. Umumiy qiymati 5 milliard dollarga teng loyiha yangi imkoniyatlarga yo'l ochmoqda. Biz axborot texnologiyalari kompaniyalari uchun qulay muhit yarataymiz. O'zbekistonda ofislar ochish hamda boshqarish bilan bog'liq barcha xavf zararini qoplash maqsadida "Nol risk" dasturini ishga tushiryapimiz".

Investitsiyaviy loyihalar, avvalo, mamlakat iqtisodiyoti rivojiga, qolaversa, sohalari taraqqiyotiga xizmat qiladi. Boisi, qaysi tarmoqli olib qaraganda, bari iqtisodiy masalalarga bog'liqlik ko'rinadi. Shu bois, investitsiya, ya'ni chetdan sarmoya kiritishga iqtisodiyot rivojining asosiy omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Soha vakillari bunday shartnomalar nafaqat ishbilanmonlik aloqalarini mustahkamlashi, balki xalqaro hamkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratishini ta'kidlayapti.

Mamlakatimizda suv resurslaridan oqilona foydalanish, zamonaviy texnologiyalar asosida boshqarish forum doirasidagi muhim mavzulardan biri bo'ldi, — deydi "O'zsvu'ta'minot" AJ boshqaruv raisi vazifasini bajaruvchi Dilshod Azimov. — Bu borada ko'plab investitsiyaviy loyihalarni amalga oshiryapmiz. Xususan, Shevryariya bilan hamkorlikda pilot loyihani yo'lga qo'ydik. Mazkur tajriba suv ta'minoti choralarini va mintaqaning ekologik xavfsizligini sezilarli darajada yaxshilashga imkon beradi. Shunday loyihalarni yanada ko'paytirishimiz zarur. Boisi, yurtimiz aholisining 90 foizini toza ichimlik suv bilan ta'minlash "O'zbekiston — 2030" strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilangan. Ushbu vazifani muvaffaqiyatli bajarishda xalqaro moliya tashkilotlari, jumladan, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, biznes hamda davlat bilan faol hamkorlik talab etiladi. Forum doirasida "O'zsvu'ta'minot" AJ hamda Ispaniyaning "Almar water solutions" kompaniyasi o'rtasida bitim imzolandi. Loyiha ichimlik va oqova suvni tozalash, buning uchun zarur qurilish ishlarini bajarish kabilarni o'z ichiga oladi.

SWS kompaniyasining biznesni rivojlantirish bo'yicha direktori Abdul Vahob Sharif "O'zsvu'ta'minot" AJ bilan hamkorlikda rejalashtirilayotgan yirik loyiha haqida so'zladi. U Markaziy Osiyodagi eng yirik loyiha bo'lishi kutilmoqda va Salar hamda Bektemir suv resurslaridan foydalanishni nazarda tutadi. Qolaversa, hamkorlar yurtimizda zamonaviy suv yig'ish, tozalash va qayta foydalanish texnologiyalarini joriy etish istagini bildirdi. Mazkur texnologiyalar mamlakatda suv resurslarini samarali tasarruf etish borasida yangi qadam bo'ladi.

Uchinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi ana shunday yirik loyihalar kelishuvi, samarali bitimlar bilan yakunlandi. Ularni amaliyotga joriy etish uzoq kurtirmaydi, degan umiddamiz. Natijasi esa har bir yurtodoshimiz o'z hayotida ko'rishini — eng katta samara.



moliya korporatsiyasi, Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki kabi tashkilotlar bilan qator loyihalarga oid bitimlar imzolandi.

Anjuman doirasida O'zbekiston va Markaziy Osiyoning investitsiyaviy salohiyatini atroflicha ochib berishga qaratilgan yalpi majlis, ekspertlar bahs-munozaralari, panel mulohazalar, davra suhbatlari va B2B muzokaralari o'tkazilgan bo'yicha qayta qaytdi.

Iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, biznesga keng yo'l ochish, bu borada qonun ustuvorligi va huquqiy kafolatlarni mustahkamlash bo'yicha qilinayotgan ishlar bilan xorijiy investorlarni yaqindan tanishtirish imkoniyati yaratildi. Shuningdek, zamonaviy energetika tizimini barpo etish, bank-moliya tizimini isloh qilish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi istiqbolli loyihalarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, sanoat va savdo, transport tizimi, sanoat korxonalarida energiya samaradorligini oshirish, suv ta'minoti, shahar infratuzilmasini yaxshilash, turizm kabi sohalarda o'zaro manfaatli loyihalar muhokama etildi. Bir qator istiqbolli loyihalarga, amaliy ishlar start berildi.

Xalqaro forum milliy iqtisodiyotdagi sanoatlashtirishning yuqori imkoniyatlarini hamda uning investitsiya salohiyatini xalqaro biznes hamjamiyatiga yaqindan tanishtirish holda xalqaro moliya institutlari va xorijiy investorlar bilan hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

Mulohaza

MALAKA TOIFASI

O'QITUVCHINING BILIM VA SALOHIYATINI BELGILAB BERADIMI?

Bugun qo'liga kiritgan yutuqlari, erishayotgan ko'rsatkichlariga yarasha yuqori maosh olayotgan, ustamalarga da'vogarlik qilayotgan o'qituvchilar soni tobora ortib boryapti. Demak, pedagog malakasi va mahorati o'z so'zini aytayapti. Shuni ham borki, oila va ro'zg'oridan ko'ngli xotirjam o'qituvchi esa yana izlanishga, o'z ustida ishlashga, faniga ijodkorlik bilan yondashishga harakat qiladi.



Prezidentimizning 2023-yil 26-maydagi "Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish choratadbirlari to'g'risida"gi farmonida bir qancha vazifalar belgilanib, pedagog kadrlar malaka toifalarini sinovdan o'tkazish tartibi ham ko'rsatib o'tilgan edi. Unga ko'ra, 2024-yil 1-yanvardan boshlab davlat maktabgacha, umumiy o'rta va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlariga malaka toifasini berishning yangi tartibi joriy qilindi.

pedagoglarga mutaxassislik fani bo'yicha 35 ta, kasbiy standartlarga oid 5 ta test savoli beriladi. Ikkinchi bosqich pedagogik mahorati baholash uchun o'tkaziladi. 20 ball bilan baholanadigan sinovda 10 ta savol-topshiriq beriladi.

Soha mutaxassislari, olimlar va amaliyotchi pedagoglarni jalb qilgan holda o'tkazilmoqda.

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti direktori vazifasini bajaruvchi Sardor RAHIMBOYEV bilan suhbatimiz yangilangan tartibdagi mazkur sinovlar qanday tashkil etilgan, attestatsiyaga doir murojaatlar, e'tirozlar qay tartibda qabul qilinayotgan va muammolari bartaraf etish yo'llari haqida bo'ldi.

Pedagog kadrlarning umumta'lim fanlari bo'yicha bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash tizimini ishlab chiqishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rgandik. Birlashgan Arab Amirliklaridagi "Emirates national schools" bilan o'zaro hamkorlik yo'lga qo'yildi, — deydi Sardor Rahimboyev. — Malaka sinovlariga doir avvalgi tizimda natijalarni baholashda inson omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, korruptsiya elementlari kuzatilgan.

Joriy yilda esa Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan malaka (test) sinovlarini shaffof, adolati, xolis o'tkazish maqsadida test.uzedu.uz platformasi ishlab chiqildi. Sinovlar kompyuterda real vaqt rejimida hamda FaceID (yuzni tanib olish) orqali o'tkazilmoqda.

Bundan tashqari, korruptsiya omillari butunlay yo'qotish maqsadida blockchain texnologiyasidan foydalanish yo'lga qo'yildi. Bu texnologiya orqali har bitta pedagog tomonidan yechilgan testning vaqti, to'g'ri va noto'g'ri javoblari haqidagi ma'lumotlarni o'zgarimas shaklda saqlash imkoniyati yaratildi. Ushbu mexanizm attestatsiya jarayonida yuz berishi mumkin bo'lgan qalbakilashtirishlarni oldini olib, tizimdagi shaffoflikni oshirishga katta hissa qo'shadi.

Malaka test sinovlari boshlanishidan oldin yangi test platformasi Toshkent shahrida uch marta, respublika miqyosida ikki marta aprobatsiyadan o'tkazildi. Sinovlar natijasida test dasturi va savollari takomillashtirildi.

Shuningdek, binolarga kuzatuv kameralari o'rnatilib, doimiy nazorat yo'lga qo'yildi hamda istagan shaxsa test jarayonini internet orqali kuzatish imkoniyati yaratildi. Pedagoglarga malaka toifasini berish yangi tartibga moslangan pedkad.uzedu.uz elektron platformasi ishlab chiqildi.

Test sinovlarini o'tkazish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar maktablari va Toshkent shahrida joylashgan ta'lim tashkilotlari hamda boshqa muassasalarning katta sig'imli binolarida 1900 ta kompyuter tayyor holatga keltirildi. Nomzodlar uchun qulay kutish joylari, tibbiy xizmat ko'rsatish tashkil etildi.

Malaka sinovlaridan o'tish uchun o'qituvchilarga muayyan davrlik belgilanganmi? Ya'ni qancha muddatda tashkil etiladi?

Yangi tartibga ko'ra, sinov bir yilda kamida bir marta ikki bosqichda o'tkaziladi va 100 ballik tizim asosida baholanadi. Birinchi bosqichda pedagogning mutaxassislik fani va kasb standart bo'yicha bilim darajasi baholanadi (80 ball). Bunda

shart-sharoitlar yaratish maqsadida malaka sinovlari o'tadigan binolarda ishtirokchilar hamda ularning yaqinlariga kutish, buyum va kiyimlarini saqlash va birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish joylari tayyorlangan. Shuningdek, ba'zi hududlarda ona-bola xonalari tashkillashtirilgan. Attestatsiya jarayonlari onlayn translyatsiya qilib borilmoqda.

Gap bilim va malakani sinovdan o'tkazish haqida ketar ekan, murojaat va e'tirozlar bo'lishi tabiiy. Attestatsiya jarayoniga oid bu kabi muammolar qay tartibda qabul qilinmoqda? Ularni bartaraf etish uchun qanday yo'l tutulmoqda?

Test jarayonlariga doir e'tiroz va korruptsiya holatlarga duch kelgan pedagoglar attestatsiyaga doir murojaatlar uchun vazirlikning maxsus tashkil etilgan ishonch telefoni (88-827-09-09) yoki bot manzili (https://t.me/uzedu_vazirbotga) murojaat yuborishi mumkin. Biz avvaldan bu haqda rasmiy saytimiz va ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarimiz orqali e'lon berib kelyapmiz.

O'qituvchilarga test topshirayotgan vaqtda tizimdan chiqmagan holda e'tiroz yuborish imkoniyati yaratilgan. Shuningdek, kuzatuvchilar tomonidan test yakunida jarayon yuzasidan yozma e'tirozlarni qabul qilish yo'lga qo'yilgan. Albatta, o'qituvchilarda shaxsiy kabinetlarida o'z natijalarini ko'rganidan keyin ham qandaydir e'tirozlar bo'lsa, apellyatsiya berish imkoniyati mavjud.

Vazirlikda apellyatsiya komissiyasi tashkil etilgan bo'lib, o'qituvchilar yuborgan har bir murojaat alohida ko'rib chiqiladi. E'tiroz o'rini deb topilsa, kerakli ballar qo'shiladi, aksincha bo'lsa, ekspertlar tomonidan asoslab beriladi.

Boshqa yo'nalishdagi shikoyatlar ham o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilib, mualliflarga tegishli javoblar beriladi. Aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun barcha zarur choralar ko'riladi.

Aytingchi, ushbu malaka toifa sinovlari o'qituvchilarga qanday imtiyoz yoki ustunliklar beradi?

Malaka toifasi pedagoglarning oylik maoshiga ta'sir qilishi sababli o'qituvchilar malaka toifasini oshirib borishdan manfaatdor. Misol uchun, mutaxassis lavozimidagi maktab o'qituvchisining oylik maoshi (bazaviy tarif stavkasi) 2,9 million so'm bo'lsa, bosqichma-bosqich ravishda oliy toifaga ega bo'lgandan so'ng uning ish haqi 4,1 million so'mga chiqadi. Bu esa mutaxassis lavozimli o'qituvchilikdan 35 foizga ko'p, degani.

Shu sababli malaka toifasini olish uchun nomzod pedagoglar o'z ustida muntazam ishlashi talab etiladi va buning natijasida



alohida e'tibor berilgan. O'qituvchilarning xotirasini emas, balki bilimni tekshirish maqsadida test dasturining o'zida kalkulyator va formulalardan foydalanish imkoniyati yaratilgan.

Joriy yilning 1-mart holatiga attestatsiyada ishtirok etish uchun jami 243 mingdan ortiq pedagog murojaat yuborgan. Shulardan 200 mingga yaqinligi malaka (test) sinovlarida ishtirok etishi kutilmoqda.

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida yarim milliondan ortiq pedagog faoliyat yuritmoqda. Ularning salkam 54 ming nafari oliy, 100 mingdan ortig'i birinchi, 127 mingga yaqini ikkinchi malaka toifali. 177 mingdan ortig'i mutaxassis lavozimiga ega, 66 ming 191 nafari esa toifasiz, ya'ni o'rta maxsus ma'lumotli.

Test sinovlarini yuqori saviyada tashkil etish hamda pedagoglarga yetarli

zamon talabiga javob beradigan pedagoglarni rag'batlantirish imkoniyati yaratiladi. Asosiysi, ushbu mexanizm ta'lim sifati oshirishga xizmat qiladi.

Joriy yilning aprel-may oylarida o'tkazilgan sinovlarda malaka toifalari berilgan pedagog kadrlarga QR-kod qo'yilgan elektron shakldagi sertifikatlar ularning shaxsiy kabinetlariga yuboriladi.

Iyul oyida attestatsiya natijasida pedagog kadrlarning oylik ish haqlariga kiritiladigan o'zgarishlar avtomatik tarzda hisoblab chiqarilishi uchun moliyaviy hisob-kitob dasturlariga yuboriladi.

Malaka toifalari oshishi o'qituvchilarning moddiy sharoitini yaxshilashga, asosiysi, ta'lim sifati ko'tarishga xizmat qiladi.

Bashorat YUNUSOVA
Suhbatdosh.

Dolzarb mavzu

QOG'UZ CHEK QULAY

biroq salomatlik uchun xavfli

Mansurbek JABBOROV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Hozirda nima xarid qilimgan, amaliyotni tasdiqlash uchun qog'oz chek beriladi. Hatto metropoliten xizmati yoki plastik kartadagi mablag'ni bankomat orqali naqdlashtirish ham QR-kodli chek bilan tasdiqlanadi. Bu amaliyot hayotimizga shu qadar o'rnatilgan, qulaylik yaratish bilan birga xarid chekidan yurtdoshlarimiz muayyan miqdorda foyda ham ko'ryapti. Masalan, soliq.uz mobil ilovasi orqali chekni ro'yxatdan o'tkazib, keshbek olish mumkin.



Qayta ishlanmaydigan qog'oz

Qog'oz chek ishlab chiqarish uchun birgina AQSHning o'zida yiliga 250 milliard gallon neft, 10 million tun daraxt, 1 milliard gallon suv sarflanadi.

Rossiyada chek ishlab chiqarish uchun yiliga 10 ming tonna termal qog'oz ishlatiladi. Buning uchun daraxtlar kesiladi, suv va energiya sarflanadi. Ishlab chiqarish jarayonida karbonat angidrid chiqariladi. Bu esa iqlim o'zgarishiga olib keladi. Demak, biz birgina chek olish uchun qanchadan qancha neft isrof qilayotganimiz, daraxtlarni kesib, cho'llanishga yo'l ochayotganimiz, natijada global isish va iqlim o'zgarishi ortib, ekotimiz izdan chiqishiga sababchi bo'layotganimiz ayonlashadi. Eng yomoni, shusiz ham tugab borayotgan suvni birgina chek qog'oz uchun isrof qilayapmiz.

Afsuski, qog'oz cheklarni qayta ishlab bo'lmaydi. Boisi, chek yozuvi kimyoviy ishlov berilgan termal qog'ozga bosiladi, bu esa uni qayta ishlash imkonini yo'qqa chiqaradi. Bunday chek olmasdan, elektron shakldan foydalanish muammoning yechimi bo'la oladi. Chunki bugun barcha amaliyotni telefonning bitta tugmachasi orqali bajarish mumkin.

Masalaning yechimi qayerda?

To'g'ri, do'konlarda yoki biror ishni bajarishimiz uchun qog'oz chek kerak, usiz ishimiz bitmaydi. Qog'oz cheklar tasdiqlovchi hujjat vazifasini bajaradi. Undan voz kechilmaydigan, deyingiz mumkin. Xo'sh, unda nima qilish kerak? Buning yechimi — onlayn tizim bilan ishlashda. Shu boisi, mutaxassislar iste'molchilarga imkon qadar bosma chekdan voz kechish yoki chekni ushlagandan keyin qo'lni yaxshilab yuvishni tavsiya qilmoqda.

Ko'plab rivojlangan davlatlarda qog'oz chekdan voz kechish va elektron chekka o'tish bo'yicha amaliy ishlar qilinmoqda, — deydi Atrof-muhit va tabiiy muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining laboratoriya mudiri, texnika fanlari doktori Zikrilla Alimov. — Sababi daraxtlar qog'ozning asosiy manbaidir. Ma'lumotlarga ko'ra, bir tonna qog'oz ishlab chiqarish uchun taxminan 24 ta daraxt kesish kerak. Bu esa, o'z navbatida, atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, qog'oz chek, aviachipta, kino chiptasi, transport va ba'zi oziq-ovqat qadoqlarini tayyorlashda termal qog'ozlar qo'llaniladi. Termal qog'ozga rang beruvchi sifatida asosan, bisfenol A ishlatiladi. U polikarbonat plastmassa va epoksi qatron ishlab chiqarishda qo'llanib, termal qog'ozga ham faol ishlatiladi. BPA miqdori odatda termal qog'oz umumiy hajmining 1-2 foizini tashkil qiladi.

Hozir olimlar oldida turgan asosiy vazifalardan biri BPAdan voz kechishdir. Ba'zi davlatlar qog'oz chekdan umuman foydalanmaydi. Misol uchun, AQSH G'aznachilik departamenti to'liq elektron to'lovga o'tgan. Aslida, onlayn tizimlardan foydalanishdan tashqari bankomatlarni takomillashtirish ham bu yo'l bo'lib ko'rilmoqda.



muammoga qarshi kurashda katta yordam beradi. Qolaversa, elektron chek haqida ham unutmastik lozim. AQSHning Uells Fargo moliya instituti 2010-yilda birinchi elektron chekni sinovdan o'tkazdi va 2022-yilga qadar uzoq yillik tekshiruv va tadqiqotlar orqali bu o'zini oqlashini isbotladi. O'z o'rnida butun mamlakat bo'ylab ushbu variantni taklif qilgan AQSHdagi birinchi moliya institutiga aylandi. Endi boshqa yirik banklar ham uning yechimiga aylanmoqda. Bu orqali joriy yilda ilk bor elektron cheklar hukmronlik qiladigan birinchi printerisiz bankomatni taqdim etdi. Bu to'liq ishga tushsa, birgina AQSHda yiliga 640 ming tonna chek qog'ozni tejab qoladi.

Umuman olganda, elektron chekka o'tish har tomonlama foyda keltiradi. Shu sababli biz ham bankomatlarni takomillashtirishimiz va imkon qadar tezroq elektron chekdan foydalanishga o'tishimiz lozim. Qolaversa, aholini qog'oz chekning zararli ta'siridan ogoh qilish va voz kechishga undash kerak. Bugun ekologik muammolar birgina davlat yoki hududning emas, umumbashar muammosiga aylanib ulgurdi. Shuning uchun ekologik vaziyatni yaxshilashga asqatadigan kichik bir sa'y-harakatimiz ham ona zaminimizni asrab-ayaylashga xizmat qiladi.

Muammo ham bor: ba'zan plastikdagi pulni bankomat orqali naqdlashtirganda ekranda aks etgan "Chek kerakmi?" degan savolga kerak bo'lsa-bo'lmasa, "Ha" tugmasini bosamiz. Chekni olgach, yerga tashlaymiz. Hatto bankomat oldidagi chiqindi idishga tashlashga ham hafsala qilmaymiz. Shuning uchun ham qaysi bankomatga bormang, yon-atrofga sochilib yotgan chek qog'ozini ko'ngilni xira qiladi.

To'g'ri, xaridor uchun ham, sotuvchi yoki taqdim etuvchi uchun ham qog'oz chek xaridni tasdiqlovchi hujjat. Shu boisi, qog'oz chekni savdo-sotiq jarayonida olamiz va hamyonimiz, cho'ntagimiz yoki sumkamizga solib qo'yamiz. Keragi yo'q deb hisoblagan taqdirda esa tashlab yuboramiz. Albatta, chek olish qonuniy haqqimiz, biroq xizmatini o'tab bo'lgach, duch kelgan yerga tashlab bugun jiddiy mamnun paydo qilyapmiz. Iqtisodiy munosabatlarni ishonchliqlik uchun yaratilgan bunday qulaylikka javoban madaniyat ham shakllanishi maqsadga muvofiq.

lekin bolalar ulg'ayavergach, zaharlanish ta'sir ko'rsata boshlaydi. Agar chek ushlagan qo'lingiz bilan burun yoki ko'zingizni ishqalasangiz, BPA ham tanangizga kiradi. Shuning uchun ushbu chekdan kamroq foydalanish talab etiladi. Avval zaharlanish kamroq bo'lgan. Bugun ushbu chekka QR-kodning tushirilishi zaharlanish ortishiga sabab bo'lmoqda. Iloji boricha qog'oz chekdan voz kechishimiz, ota-onalar ham farzandiga ko'z-quloq bo'lishi, og'ziga nojo'ya narsalar solmasligini nazorat qilishi lozim. Shundaygina biz o'z bo'lsa-da, ushbu xavfning oldini olamiz.

Bisfenolning zarari allaqachon Yevropa Ittifoqida tan olingan. Bolalar o'yincho'gi va suv idishlarini ishlab chiqarishda undan foydalanish taqiqlangan. Bizda esa qog'oz chekka talab kundan kun ortmoqda. Hatto jeton o'mini ham QR-kodli chek egallagan. Metroda QR-kodli chek o'miga maxsus yo'l kartasidan foydalanish tavsiya etiladi. Bu ham salomatlik uchun foydali, ham uzundan uzoq navbatning oldini oladi.



Bu bir parcha qog'oz sirtidan zararsiz ko'rinadi, lekin xavfli. Chek yozuvi tarkibidagi moddalar inson reproduktiv salomatligidagi o'zgarishlar, endokrin tizimi faoliyatining buzilishi, miya rivojlanishining kechikishi, diabet, saraton, semirib ketish va yurak-qon tomir kasalliklariga olib kelishi mumkin.

Bolalar qo'liga bermang

E'zoza boshlag'ich sinf o'quvchisi. Ota-onasi biror narsa xarid qilsa, uyga kelishlari bilan qog'oz chekni so'rab oladi. Onasi so'nggi paytlarda 10 yoshli qizga bu cheklar nima uchun kerakligi bilan qiziqdi. Qiz chekni oldi-da, soch tekislagich dazmolni qizdirib, qog'ozning ustidan yurgizdi, ya'ni tekislandi. Qog'ozdagi yozuv yo'qolib, qop-qora tusga kirdi. Qiz olamshumul kashfiyot qilgandek, onasiga qog'ozni mamnun uzatdi. Ona bunga e'tibor bermadi. Aslida, bu amaliyot bola sog'lig'iga xavf tug'dirishi mumkin.

Kam foydalanilganda bunday cheklarning zarari sezilmaydi, biroq muntazam qo'llanganda zarari ortib boradi. Ayniqsa, bolalar hayotiga jiddiy xavf tug'diradi. Ularning qo'l terisi kattalarnikiga qaraganda ancha nozik va yupqa bo'lgani boisi, chekni ushlaganda zararli moddalarning bola tanasiga o'tishi kattalarnikiga nisbatan tezlashadi. Qolaversa, bolalar tabiatan qiziquvchan bo'lgani boisi, QR-kodli chekni og'ziga solishi, hatto yutib yuborishi ehtimoli katta. Bunda chekdagi zaharli toksinlar tanada to'planib, vaqt o'tishi bilan jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Bisfenol (BPA) — zaharli modda. U tanaga teri orqali kiradi. Bolalarda esa chekdan zaharlanish holati ancha yuqori, — deydi Bolalar milliy tibbiyot markazi matbuot kotibi Shohruxon Olimov. — Qo'l nam yoki yog'li bo'lsa, masalan, krem yoki antiseptikdan foydalanilganda bu moddaning singishi tezroq sodir bo'ladi. Yosh bolalar og'ziga solsa yoki yutib yuborsa, zaharli moddaning qonga o'tishi tezlashadi. Zaharlanish ham shunga yarasha ortadi. Asorati birdan sezilmasligi mumkin,



Yuksalish pallasasi

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

NAVOIYLIK FARHODLAR DOSTONI:

"QIZILQUM JAVOHIRLARI" DAN sochilgan yoq'dular

Muxtasar TOJIMAMATOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ertagu dostonlarda, sarguzasht filmlarda bo'lgani kabi biz ham oltin konini izlab yo'lga chiqdik. Qo'limizda hazrat Navoiyning "Farhod va Shirin", ko'nglimizda navoiylik bugungi farhodlarning yangi dostonini — ular zabt etayotgan yuksal dovonlar ta'rifini eshitish istagi... Ha, to'g'ri angladigiz, biz bugun yurtimizning eng gigant korxonalaridan biri hisoblangan Navoiy kon-metallurgiya kombinatining fidoyi ishchilari va san'atga ishtiroqchilarning yigit-qizlari haqida hikoya qilmoqchimiz.

Dedi har ishki qilmish odamizod,
Tafakkur birla bilmish odamizod.

Hozir qaysi hudud yoki maskanga tashrif buyurmang, zamonaviy dunyoqarash asosidagi raqamlashtirish jarayoni har bir inson faoliyatini yangi cho'qqilar sari rullantirayotganiga guvoh bo'lasiz. Shu bois, biz ham dastlab yangi innovatsion texnologiyalarning ishlab chiqarish jarayoniga qanday tabiiq etilayotgani bilan qiziqdik.

— Kombinatimiz yo'nalishi bo'yicha dunyodagi yetakchi kompaniyalar safida turadi, — deydi "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ raisi, bosh direktori Quvondiq Sanaqulov. — Sohani rivojlantirishga qaratilgan muhim dastur va puxta o'ylangan yirik investitsion loyihalar izchil tabiiq



etilayotgani tufayli kombinat taraqqiyotning yangi manzillari sari yuzlandi. Kon-metallurgiya sohasida korxonalar konlarni o'zlashtirish, ma'dan qazib olishdan tortib, tayyor mahsulot yetkazib berishgacha bo'lgan yaxlit bir tizim asosida faoliyat yuritayotgan ulkan klasterga aylandi. Jahonda tengi yo'q ilg'or texnologiyalarga asoslangan zamonaviy gidrometallurgiya zavod va tarmoqlari barpo etilishi, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish loyihalari kombinat imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Oltin besh yil... Mana shu davrda bosib o'tilgan yo'l, amalga oshirilgan ishlar, qo'lga kiritilgan yutuqlar aytishga oson. Chunki buning zamirida juda katta mehnat, jasorat, fidoyilik yotibdi. Ayniqsa, keyingi yillar kombinat uchun yangi istiqbol ochildi. Bunda davlatimiz rahbari tomonidan 2017-yilda tashkil qilingan kombinatni 2026-yilgacha rivojlantirish dasturi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Geologik qidiruv ishlaridan tortib, tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan barcha jarayon to'liq raqamlashtirildi.

Bu esa korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortishiga mustahkam zamin yaratdi.

— O'tgan yillar davomida 23 ta yirik investitsiya loyihasi amalga oshirilib, 15 mingdan ortiq yangi ish o'rni yaratildi, — deydi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi Yo'ldosh G'aniyev. — Natijada oltin ishlab chiqarish 2023-yilda 2016-yildagidan 25 foiz, kumush olish 46 foiz oshdi. Bu marralar bilan kombinat oltin ishlab chiqarish bo'yicha dunyoda yettinchisi o'ringa to'ringa o'ringa chiqib olgani kon-metallurgiya tarixida misli ko'rilgan ulkan natijadir.

Xush durur bog'u koinot guli,
Barchadin yaxshiroq hayot guli.

Hayot guliga ne yetsin... Erta tongdan shoshib-pishib ishga otlansang, sevimli jamoang bag'rida kasb mashaqqatlari-yu sevinchlariga sho'ng'ib, maza qilib ishlasang-u yoqimli horg'inlik hissi bilan yana uyingga, oila a'zolaring diydoriga oshiqsang...

Navoiylik sanoatchilarning fidokorona mehnati bilan bepoyon Qizilqum bag'rida mehnat qazib olinayotgan, dunyo miqyosida yuksak e'tirof etilayotgan nodir qazilma boyliklari iqtisodiyotimiz taraqqiyotini ta'minlashda beqiyos strategik ahamiyatga ega. Shu bois, ishchilar, xizmatchilar mehnatini rag'batlantirish, mehnat va dam olish sharoitlarini yaxshilash masalasi ham doimiy e'tiborda. O'tgan 2023-yilda davlatimiz rahbarining farmoniga asosan, ishlab chiqarish ilg'orlaridan bir guruhi mukofotlandi.

— Mamlakatdagi eng katta zavodlardan birining qurilish-montaj ishlarida qatnashib, yutuqlarga erishib kelayotganimdan faxrlanam, — deydi kombinatning Shimoliy kon boshqarmasi 3-gidrometallurgiya zavodi katta ustasi, "Do'stlik" ordeni sohibi Guljamila Turg'unboeva. — O'zbek, rus, qozoq, qoraqalpoq millatlari jamoamizda o'zaro ahillikda mehnat qilib kelmoqda. Keyingi yillarda zavodimiz ichida yangi minizavodlar qurildi. Biokisseniya, filtrlash-quritish sexlari ishga tushdi. Bu samaradorlikni yanada oshirib, davlatimiz xazinasiga ko'proq oltin yetkazib berishimizga imkon tug'dirmoqda.

Ulkan maydonni egallagan markaziy Qizilqum sahrasi bag'rida Mendeleev davriy jadvalidagi deyarli barcha elementlarni uchratish mumkin. Bu, o'z navbatida, tabiat bizning zaminni yetarli miqdorda mineral xomashyo resurslari bilan siylaganidan darak berib, konchilik sanoati rivojiga turki bo'ldi. 1967-yilning mart oyida asr mo'jizasi, deya ta'riflanuvchi Muruntov oltin konida ilk portlatish ishlarini amalga oshirildi. Bu tarixiy voqe'lik Qizilqum cho'lida Navoiy kon-metallurgiya kombinatidagi salohiyatini muassasalari faoliyat boshlashiga asos bo'ldi. Bugun yurtimizning yettita hududida korxonaning ishlab chiqarish bo'linmalari joylashgan. Sanoat sohasi drayveri sanalgan kombinat iqtisodiy barqarorlikni



(esse)

ta'minlashga ulkan hissa qo'shmoqda. Ishlab chiqarilayotgan oltin quymalari jahonning qimmatbaho metallar birjarlarida O'zbekiston brendiga aylandi.

Gar yo'q'tur adab, ne sud oltun unidin,
Elining adabi xushroq erur oltunidin.

Ha, bejiz hazrat Navoiyning el adabi, madaniyati, ma'naviyati borasidagi misralarini yodga olmadik. Shu kunlarda respublikamiz bo'ylab Navoiy kon-metallurgiya kombinati



jozibali raqslari bilan ko'pchilik qalbida o'zbek san'ati kelajagiga bo'lgan umid chiroqlarini yoqdi.

Darhaqiqat, milliy va xorijiy kuy-qo'shig'ni raqslarni maromiga yetkazib ijro etgan ishtirokchilarni tomoshabinlar davomli qarsaklar, "Barakalla, ustozingga rahmat!", "Qoyil, baraka top!", "Chindan ham yuragida o'ti bor yoshlar ekan!" degan e'tiroflar bilan olqishladi.

— "Qizilqum javohirlari"ni ko'rib, bu yoshlar iste'dod borasida chindan ham yurtimiz javohirlari, gavhar qalbi yoshlari ekaniga guvoh bo'ldim, — deydi taniqli olim, falsafa fanlari doktori Jamila Shermuhammedova. — Prezidentimiz ma'ruzalaridan birida "Barcha rahbarlar bir narsani bilib olsin: ertangi kunimiz egalari bo'lgan yoshlar bilan ishlash — biz uchun hayot-mamot masalasi! Biz yoshlarga bugundanoq sharoit qilib bermasak, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha inqilobiy tashabbuslarni ilgari surmasak, yangi O'zbekistonni qanday barpo qilamiz?" deya ta'kidlagan edi. Bugungi kunda kombinat muassasalari faoliyatiga alohida e'tibor qaratgani tahsinga sazovor, — deydi

— Shunday ulkan ishlab chiqarish jarayonida mazkur kombinat madaniyat muassasalari faoliyatiga alohida e'tibor qaratgani tahsinga sazovor, — deydi

ansambllari, "Nihol" va "Tarona" o'zbek xalq cholg'u orkestrlari, "Shok" estrada-raqs ansambli betakror namoyishlari bilan barchamizni hayratga soldi. Men bu dasturni tomosha qilayotib, navoiylik san'atsevar yosh qalblar shijoatiga, iste'dodiga, orzu-intilishlariga havas qildim. Ana shunday katta maqsad va dadil qadamlar bilan izlanayotgan yoshlarimiz safi yanada kengayishini istayman.

"Uchquduq" madaniyat uyi xonandasi Bonu Is'hoqova ijrosidagi "Sarjaylov" qozoq xalq qo'shig'i yangraganida sahnaga atirgullar havoda suzgani kabi "Afsona" raqs ansambli qizlari kirib keldi. Ularning inja qo'l harakatlari va milliy liboslaridagi osmon rangli jilolar tomoshabinlarni to'qinlantirib yubordi.

— Men ushbu ansamblla 4-yildan buyon qatnashib kelayman, — deydi Sabina Ummatova. — Ustozimiz taniqli baletmeyster Yulduz Ismatovadan raqs sirlarini o'rganayotganimdan juda xursandman. "Ilk bahor", "Gullar", "Navro'z" kabi ko'plab milliy va qardosh xalqlar raqsalarini turli tanlovlarda ijro etib, faxrlari o'rinlarni egallaganmiz. Raqs sehiri bilan yashash, seni tushunadigan, angliyadigan ustozlaring, do'stlaring, jonjon jamoang borligidan faxrlanish qanday yaxshi! Biz har gal poytaxtdagi katta sahnalarga qadam qo'yganimizda juda qattiq hayajonga tushamiz, g'ururlanamiz!

Shu o'rinda shogirdlarini navbatdagi qo'shiq uchun shaylayotgan "Nihol" davlat mukofoti sovrindori, "Farhod" madaniyat saroyi direktori o'rinbosari Sherzod Davronovni ham shubhatga tortdik.

— 2001-yilda "Farhod" madaniyat saroyiga xonanda sifatida ishga kirgan edim, — deydi u. — Jamoadagi muhit tufayli zavqu shavq bilan ijod qila boshladim. Avval respublika, so'ngra xalqaro tanlovlarda birin-кетин sovrindor bo'lish baxti nasib etdi. 2004-yilda "Nihol" davlat mukofoti bilan taqdirlandim. O'sha yildan boshlab viloyatlarda va Toshkentda konsert dasturlarimni taqdim etib kelaman. Taniqli bastakorlar, shoirlar bilan hamkorlikda yangi qo'shiqlar yaratdik. 2022-yilda "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni bilan taqdirlandim.

Kombinat san'at ishtiroqchilarning yangi dasturlari va ijodiy loyihalarini hamisha qo'llab-quvvatlab kelgan. Estrada, folklor, maqom yo'nalishlarida "Qizilqum san'at g'unchalari", "Qizilqum ovozi", "Qizilqum ohanglari", "Oltin meros" kabi tanlovlar muntazam o'tkazilmoqda. 2013-yildan buyon

Nosir HAYDAROV olgan suratlari.

har yili "Qizilqum javohirlari" konsert dasturi respublika darajasida namoyish etilishi esa an'anaga aylangan.

— Men 17 yoshimda ishni oddiy chilangarlikdan boshlaganman, — deydi "Do'stlik" ordeni sohibi Serjan Janaxmetov. — Avval "Uchquduq" madaniyat saroyidagi to'garaklarga qatnashib, konsert dasturlarida qo'shiq aytib boshladim. Keyinchalik meni "Farhod" madaniyat saroyiga taklif etishdi. Bu jamoada o'zim orzu qilgan ko'plab qo'shiqlar yaratishga muvaffaq bo'ldim. Bugungi konsertda "Aydinlar" qo'shig'ini ijro etdim. Shunday go'zal va farovon yurtda tug'ilganimdan, yonib-jo'shib ijod qilayotganimdan juda baxtliman.

Xulosa onlarida yana "Farhod va Shirin"ni varaqladik:

"Ko'rib Shirinni hayrat lol qildi,
Taajjub bir yo'li behol qildi.
Ko'rungach ko'zga mundaq chehri oning,
Ichiga soldi sho'ri mehri oning.

Mo'jizalar yaratuvchi Farhodni ko'rgan Mohinbonu va Shirin uning ishiga ofarinar o'qib, boshidan javohirlar sochdilar". "Qizilqum javohirlari" dasturini tomosha qilish jarayonida Navoiy bobomizning rag'bat va tasavvut kuchi ila Navoiy kon-metallurgiya kombinati ish jarayoni bilan yana bir bora tanishdik, yonginamizda o'tirgan navoiylik farhodlar-u shirinlar bilan shubhat qurdik.

— Ishchi-xodimlarimizning dam olish vaqtini mazmunli tashkil etish ishlarini tizimli yo'lga qo'yilgan, — deydi NKMK Kasaba uyushmasi kengashi mas'ul xodimi Malika Xolmuradova. — Jumladan, 2023-yilda kombinat ishchi-xodimlari uchun "Ayyulash" qoraqalpoq davlat milliy folklor ansambli hamda Toshpo'lat Matkarimovning konsert dasturi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti talabalarining "Kunduzsiz kechalar", Jizzax viloyati musiqali drama teatrlarining "Nodirabegim" spektakllari namoyish etildi. Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi respublika askiya va qiziqchilik san'ati markazining "Askiya sayli", Oltin Sultonovning "Bir tilim handalak" dasturi hamkasblarimizda katta taassurot qoldirdi. "Navro'z sumalagi" adabiy kechasi Jasur Mavlonov, Bahrom Nazarov, Anvar Sanayev, Hosila Rahimova ishtirokida yanada fayzli bo'ldi.

Ha, "Yaxshi dam — mehnatga hamdam", deya bejiz ta'kidlashmagan. Kombinatin qaysi xodimi bilan shubhatlashmaylik, oltin-u javohirlarga yetg unmini el-yurt manfaatini yo'lida sarf qilayotgan yurtdoshlarimizning zahmatli mehnatlar shukronasi va yaratilgan sharoitlar e'tirofidan ko'nglimiz tog'dek yuksaladi.

Shubhat asnosida bir haqiqat qalbmizga yorug'lik bag'ishladi: xoh shahar markazida, xoh sahrada, xoh qishlog'u ovullarda yashasin, yurtdoshlarimizning barchasini bir muqaddas rishta — O'zbekistonimiz istiqbol qayg'usi, orzusi, mehru muhabbati birlashtirib turadi. Albatta, ana shu yuksak birlashuvimiz, hamkorlikdagi mehnatimiz, ezgu g'oyalimiz ro'yobi Uchinchi Rennessans poydevoriga asos bo'lgusidir!

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati" DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1513.
44034 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchesi muharrir: Bekqul Egamqulov
Musahhib: Asliddin Abdurazaqov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy